

O'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash —

ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi

Lekin bu oson ish emas, ilgari ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviyligni ta'minlash bo'yicha boshlangan harakatlar to'liq nihoyasiga yetgan deb ayta olmaymiz.

2-bet

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari

Agarda teledarslar oldingi qolipda suratga olinishda davom ettirilsa, samaradorlikni keskin pasaytirib yuborishi shubhasiz. Shuning uchun suratga olishda darslarning tarkibiy tuzilishini ham, mazmunini ham o'zgartirish kerak.

7-bet

Abdulla Qahhorni qoyil qoldirgan...

Abdulla Qahhor yoqa ushladi:

"Voajab, men asarning muallifi bo'lib, to'rt ko'z bo'lib, spektaklni kuzatib o'tirib, aktyorning bu harakatini payqamabman, Sanjar esa sezibdi. Qoyil-ey!".

14-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 9-sentabr, chorshanba № 33 (9306)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchining cho'ntagiga ko'z tikmang, janob mutasaddilar!



Butun dunyo virusning oldini olmay turgan vaqtda sinf rahbari qanday qilib kafolat xati bilan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni uddalaydi?

Sinf rahbarlik alohida olib boriladigan, qoniqarli maosh to'lanadigan ish emas.

O'qituvchilik faoliyati bilan birga olib boriladi.

5-bet

O'quvchilar va abituriyentlar diqqatiga!



Gazetamiz o'quvchilar va abituriyentlarga yordam tariqasida yangi — "Ma'rifat" repetitori" ruknini tashkil etmoqda.

Mazkur rukn ostida oliy o'quv yurtiga qabul imtihonlaridagi majburiy uch fan — ona tili, matematika va O'zbekiston tarixidan topshiriq va testlar muntazam e'lon qilib boriladi. Bu orqali abituriyentlar ushbu fanlarni tizimli va taqvimiy asosda o'rganish hamda bilimlarini o'z vaqtida sinovdan o'tkazib, monitoring qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, e'lon qilinadigan testlardan variativ sinflar va barcha sinf o'quvchilari uchun sinov testlari sifatida foydalanish mumkin.

Hurmatli abituriyentlar! Imtihonlarga "Ma'rifat" gazetasi bilan birga tayyorgarlik ko'ring!

Bizni internetda ham kuzating! www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo



8-9-betlar



Qizim 6 yildan buyon o'qishga hujjat topshiradi. Bu yil ham omadi kelmadi. Ichki ishlar akademiyasiga ham 2 yil harakat qildi, testdan o'tadi, suhbatdan yiqitishadi. Aksariyati harbiylarning farzandlari kirgandi o'shanda. Qayerga bormaylik korruptsiyaning kasriga qoldik. Bu yil xotin-qizlarga berilgan imtiyozning foydasi bo'lar, deb o'ylagan edik, nasib qilmadi. Yolg'iz farzandimni o'qisin, oliy ma'lumotli bo'lsin deb shuncha harakat qildim. Shundog'am ko'ngli yarim qizimning ahvoli hozir yaxshimas. Hech narsaga ishonchi qolmadi...

Gulora NORBOYEVNA

O'qituvchi o'z nomiga munosib ishini qilsin, tamom. Pul yig'ish va boshqa masalalar bilan shug'ullanish o'qituvchining zimmasidagi vazifa emas! Bu kabi holatlarga chek qo'yish kerak. Maktablarda yig'di-yig'dilar uchun biror mas'ul shaxs tayinlansin. Ayniqsa, hozir sanitariya-gigiyena vositalari, suv va boshqa narsalarga ehtiyoj ortgan bir paytda bunday inson kerak. O'qituvchi ota-onalar bilan faqat bolalar ta'lim-tarbiyasi haqida gaplashsin. Ana shunda jamiyatda o'qituvchilar obro'yi mustahkam bo'ladi.

Nargiza JALILOVA

Sariosiyo tumanida maktabni turli dezinfeksiya vositalari bilan ta'minlash o'qituvchilarning zimmasiga yuklatildi. Bir kunlik ish haqimizni "Saxovat va ko'mak" fondiga o'tkazishimiz kerak ekan. Qizig'i, faqat naqd pulda va o'zimiz olib borishimiz talab qilinmoqda. Bundan tashqari, har bir maktab uchun tana haroratini o'lchaydigan asbob — pirometr uchun ham direktorlardan ikki yuz ming so'mdan olingan. Buning uchun ham biz, o'qituvchilardan pul yig'ishga to'g'ri keldi...

O'QITUVCHI

Chorlov

Virusni jilovlash qo'limizdan keladi

Inson fe'l-atvorida shunday bir il-lat borki, uni loqaydlik deb atay-miz. Bu illat sohiblari atrof-muhitda-gi hodisalarni, hatto u salbiy bo'lsa ham, ko'rib ko'rmaganga, eshitib eshitmaganga oladi. Bu illat chuqur ildiz otib ketsa, jamiyat inqirozi muqarrardir.

Mana yarim yildan oshdiki, butun yer yuzini xatarga qo'ygan Covid-19ni bartaraf eta olmay nufuzli tashkilotlar, manaman degan boy va qudratli davlatlar ovora-yu sarsan. Agar muammo bartaraf etilmasa, insoniyat misli ko'rilgan yo'qotishlarga uchraydi.

Ming afsuski, koronavirus balosi mam-lakatimizni ham chetlab o'tmadi. Ko'rib turibmiz, shu kech-kunduzda Prezidentimiz boshchiligidagi pandemiyani oqibatlarini yum-shatish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shifoxonalarda minglab yangi o'rinalar tashkil etildi, bemorlar davlat hisobidan bepul dori-darmon, oziq-ovqat bilan taminlanmoqda. Nochor ahvolda qolgan oilalar uchun milliardlab mablag' yordam tariqasida tarqatildi. Xorijdan qarzga bo'lsa ham tibbiy asbob-uskunalar olib kelindi. Sog'liqni saqlash, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya xodimlari o'z sog'liqlarini xatarga qo'yib, tun-u kun mehnat qilmoqda. Tibbiyot xodimlari ham-mani karantin qoidalarga rioya qilishga, bu kasallikdan iloji boricha saqlanishga chaqirmoqda. Eng achinarli tomoni, yuqoridagi soha xodimlari orasida ham, xalqimiz orasida ham qurbonlarning soni oshayotganligidir. Bunda o'zimizning ham yetarlicha aybimiz bor. Ayrimlarning katta-katta ziyofat-u to'ylar qilib mehmonlarning dasturxoniga, cho'ntagiga virusni "solib yuborgani" yolg'onmi?! Turmush tashvishlarini bahona qilib farzandlariga qarashga ham vaqt topolmay, ularni ko'chaga nazoratsiz qo'yib yuborgan, oddiy tibbiy madaniyatga amal qilishni istamaydigan kibrli insonlar ham biz bilan birga bir havodan nafas olib turibdi-ku!

Shuningdek, ayrim insonlarning pande-miya davrida qilayotgan nopok ishlarini ko'rib, buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning "Asrga ta'tigulik kun" asaridagi manqurtlar hali ham borligidan afsuslanasan kishi. Nahotki, bu insonlar shu xatti-harakat-lari bilan jamiyatga, o'z vataniga xiyonat qilayotganini anglab yetmasalar?

Shunday ekan, bugungi kundagi vaziyat barchamizdan vatanparvar bo'lishni, loqayd bo'lmaslikni, jamiyatimizdagi ayrim toifa insonlar tomonidan karantin qoidalarga bepisandlik bilan qarash kabi salbiy holat-larni birlashtirib tuzatishni taqozo etadi.

Dunyo tajribasidan ham ko'rinib turibdi, qayerda insoniylik, o'zaro hurmat, madaniyat bo'lsa, o'sha xalq birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib pandemiyani jilovlamog-da. Tayvan, Vetnam, Xitoy kabi mamlakatlar shular jumlasidandir. Bizning ular-dan nimamiz kam?! Axir, tomirimizda dunyoviy va diniy bilimlar sohasida butun dunyoni lol qoldirgan insonlar qoni oqmoqda. Shunday ekan, kelimg, yurtimizning barcha jonkuyar va fidoyi ustoz hamda murabbiylari, ziyokorlari! Kelajak uchun bu ko'rinmas baloga qarshi o'z so'zimiz va harakatimiz bilan kurashaylik! Tibbiy madaniyatga o'zimiz rioya etib, boshqalardan ham buni qat'iy talab qilaylik!

Sobir ASROROV,
Kitob tumanidagi
3-maktab o'qituvchisi

O'quv dasturlari

ta'lim sifatini

Ta'lim sohasi mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishi hisoblanadi. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi"ga erishishda "...umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish"ga Yurtboshimiz tomonidan alohida urg'u berilgani bejiz emas.

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun 2020-yilning 7-avgust kuni senatorlar tomonidan ma'qullandi. 1997-yildan buyon amalda bo'lgan Qonun yangilandi. Ushbu qonun loyihasi barcha vazirliklar takliflari asosida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan muvofiqashtirilib, hukumatga kiritilgan. Qonunda maktabgacha ta'limdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'limning uzviyligini, mazmun jihatdan ketma-ketligini ta'minlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

12-avgust kuni Prezidentimizning "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham ta'lim, fan, ishlab chiqarish integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston ta'limi Xalqaro ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich integrallashib bormoqda. O'zbekistonda ilk bor Milliy malakalar ramkasi tasdiqlandi, bugungi kunda tarmoq kvalifikatsiya ramkalari, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini yaratish va yangi o'quv yilidan joriy etish ishlarini amalga oshirilmoqda.

2020-yil boshida Oliy Majlisga Prezident Murojaatnomasida maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur-ligi hamda oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirilishi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqilishi, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini 2 barabarga qisqartirish vazifalari belgilangan edi.

Prezident Administratsiyasi tomonidan "2020-yilda ta'lim sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar, maqsadli ko'rsatkichlar va islohotlarni jadallashtirish bo'yicha kompleks "yo'l xaritasi"ning 3-bandida ta'limning barcha bosqichlarida fan dasturlarini tahlil qilish, ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash vazifalari ko'zda tutilgan. Ushbu vazifalar ijrosiga ko'ra o'tgan davr davomida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni 2019-yil 22-oktabrda qabul qilindi, 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullandi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi yangilanmoqda. Maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturining

mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligini ta'minlash hamda 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash, ular-da zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalar darajasini aniq belgilash ishlarini tashkil etish maqsadida ishchi guruhlar tashkil etilgan. Ishchi guruh a'zolari UNISEF xalqaro bolalar fondi mutaxassislari ishtirokida, Estoniya, Finlandiya, Janubiy Koreya, Polsha davlatlarining tajribalarini o'rganishdi. Estoniya (Anna Golubyeva) va Janubiy Koreya (professor Li Don Vuk) xalqaro ekspertlarining xulosalarida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari aynan bugungi kun zamonaviy bolalarning rivojlanish xususiyatlariga mosligi va talablar murakkab bo'lmaganligi ko'rsatib o'tilgan.

Tarbiyalanuvchilar tomonidan o'quv dasturlari sifatli o'zlashtirilishi va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish maqsadida mazkur Davlat talablari asosida zamonaviy o'quv-metodik majmualar, didaktik va ko'rgazmali o'quv materiallar, shuningdek, boshqa ta'lim resurslari bosqichma-bosqich yaratilib, o'rnatilgan tartibda joylarga yetkaziladi.

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash belgilangan. Ushbu standartlarni tasdiqlash bo'yicha qaror loyihasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tayyorlanib, vazirliklar bilan project.gov.uz orqali kelishilib, hukumatga taqdim etilgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatini yaratish, har bir bolaning iste'dodi ni-shonalarni, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirish, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi, maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi bo'yicha

Xalq ta'limi tizimida Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (MO'D) ni ishlab chiqish vazifasi belgilangan. UNISEF bilan hamkorlikda Singapur, AQSH, Angliya, Koreya, Yaponiya, Gong-kong dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembrij tajribasi, o'quv dasturlari va darsliklari o'rganilgan. Xalqaro konsultant ishtirokida 6 ta an'anaviy va 10 ta onlayn ishchi yig'ilishlar o'tkazilgan va davom etmoqda. 21 ta fandan ijodiy ishchi guruhlar

tomonidan o'quv dasturlari tahlil qilingan. Pandemiya davrida ham ekspertlar 21 ta fan bo'yicha alohida telegram botlari orqali onlayn rejimda ishlarini tashkil etgan. Xalq ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida" buyrug'i hamda Xalq ta'limi vazirligi va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqishni tashkil etish to'g'risida" qo'shma qarori va "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. Boshqa vazirliklarga qaraganda Xalq ta'limi tizimida Respublika ta'lim markazi tomonidan ushbu yo'nalishda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublika ta'lim markazi umumiy o'rta ta'limning MO'D 6 ta komponentidan iborat bo'lishini ko'zda tutmoqda: (1) umumiy o'rta ta'limning malaka talablari; (2) umumta'lim fanlarining konsepsiyalari; (3) umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi; (4) umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari; (5) umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi; (6) baholash tizimi.

Respublika ta'lim markazi ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda xalqaro ekspertlar bilan birga MO'Dning 4 ta komponenti: umumiy o'rta ta'limning malaka talablari, umumta'lim fanlarining konsepsiyalari, umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi, umumta'lim fanlari o'quv dasturlari loyihalari ishlab chiqilgan. MO'Dni ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o'tkazish va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish samaradorligini ta'minlash maqsadida yuqori salohiyatli milliy ta'lim ekspertlari, xalqaro hamkorlari, jumladan UNISEF, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan tizimli ishlab tashkil etilgan.

Baholash tizimi va o'qitish metodologiyasi 2020-2021-o'quv yilining 1-3-choraklarida hududiy xalq ta'limi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida ekspertizadan o'tkaziladi. Ishchi guruh tomonidan MO'Dning barcha komponentlari 2021-yil may oyiga qadar xulosalar va takliflar asosida takomillashtirildi. MO'D va u asosida yaratilgan darsliklar 2021/2022-o'quv yilidan boshlab tajriba-sinovdan o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Umumiy o'rta ta'limning amaldagi DTS (2017-y.) va yaratilayotgan MO'Dning qiyosiy tahliliga e'tibor qarotilsa, agar amaldagi DTS 12 yillik ta'limning A1, A2 va B1 darajalari bo'yicha bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablari, MO'D esa umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilari va har bir sinf bo'yicha o'quvchilar faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablarni nazarda tutadi.

Amaldagi DTS umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasini MO'D esa umumiy o'rta ta'limning tayanch va variativ o'quv rejalarni, amaldagi DTS umumta'lim fanlari o'quv dasturlari mazmuni 80% nazariya va 20% amaliyotga yo'naltirilgan, MO'D esa umumta'lim fanlari o'quv dasturlari mazmuni 50% nazariya va 50% amaliyotga yo'naltirish ustida ishlanmoqda.

Tahlillarga ko'ra shuni aytish mumkin, xalq ta'limi tizimida joriy etilishi kutilayotgan Milliy o'quv dasturi tizimi va yaxlit ishlab chiqilayotgan 6 komponentli milliy hujjat bo'lib, 2017-yilda

Yaxshi suhbatdosh yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir

Muloqot madaniyati odamda bolalikdan shakllana boshlaydi.

Muloqotda buyruq ohangi-ning ustuvorligi oilada o'zaro raqobatni vujudga keltiradi. Chunki do'q-po'pisa, tez-tez bildiriladigan norozilik samimiy muloqotga putur yetkazadi.

O'zaro yordam, bir-birini tushunishga harakat qilish, maslahatlashish kabi usullardan foydalanilsa, bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi va eng yaxshi psixologik muhit yuzaga keladi.

Albatta, muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar mavjud. Bular:

1. **Psixologik to'siq.** Bu suhbatdoshga yoqmay qolishdan, tushunolmay qolishdan, keskinlikdan qo'rqish, qo'pollik qilishdan xavotirlanish.

2. **Vaziyatli to'siqlar** — suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari.

3. **Mazmuniy to'siqlar** — suhbatdosh tushunmaganligi tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, qanday fikrni ilgari suryapti, shuni ilg'amaslik tufayli yuzaga keladi.

4. **Motivatsion to'siqlar** — bu shunday vaziyatda yuzaga keladiki, gapirayotgan odam yo'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Bunday to'siqlar oila munosabatlarining to'g'ri shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularda yuzaga keladigan muammolarni yechimini bar-taraf qilishda qiyinchilik tug'diradi.

Ko'pchilik oilalarda muloqotning buzilishiga ayolning haddan ziyod hurmattalabligi ham sabab

bo'ladi. Turmush qurayotgan yoshlar bilan suhbatlashsangiz, ular oila qurishda muhabbatni birinchi o'ringa qo'yadilar. Nikohdan so'ng dastlabki 1-5-yillar aynan muhabbat hislarida sifat o'zgarishi kuzatiladi va shunga asosan ilgari yetakchi motiv bo'lgan muhabbat oilaviy hayotda zarurroq, ahamiyatliroq bo'lgan boshqa sabablarga o'z o'rmini bo'shatib beradi. Oilaviy munosabat va o'zaro muloqotning yetishmasligi yoki to'g'ri tashkil etilmaganligi bolalar ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, bolalar tarbiyasining noto'g'ri shakllanishiga olib keladi.

Oila va oilaviy munosabatlar masalasi o'tgan asrlarda ham davrning muhim muammosi bo'lgan. Zotan har bir inson umrining ko'p vaqti oilada o'tadi. Shuning uchun oiladagi nozik ruhiy, hissiy-psixologik holatlar bola hissiyotlari va ruhiyatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bola tarbiyasi eng avvalo ota-onaning shaxsi, hayot faoliyati, turmush tarzi bilan birgalikda oiladagi psixologik muhitning ta'siri ostida yuzaga keladi. Oilada muhit va o'zaro muloqot qanday bo'lsa, bola xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadi. Umuman, har qanday oilaning tarbiyaviy ta'sirchanligi va samaradorligi ko'p jihatdan oilada qaror topgan ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatga, axloqiy-ruhiy holatga bog'liq.

Ota-onaning bolaga talabchanligi esa uning yoshi, jinsi, individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Lekin bola shaxsiga o'ta jiddiylik bilan yondashilsa, yoki aksincha e'tiborsizlik bo'lsa,

ular o'rtasida psixologik to'siq paydo bo'ladi. Natijada samimiy muloqot o'rnatib olish qiyinlashadi.

Oilada otaning roli va mavqeyi muhim o'rin egallaydi. Kichik yoshdagi bolalar ota obro'sini birinchi navbatda uning egallab turgan mavqeyiga qarab belgilaydilar. Bu yerda otaning nafaqat farzandiga, balki butun oilaga ham taalluqli masalalarni hal etishi nazarda tutiladi. O'smir yoshdagi bolalar esa ota-onasidan tashqari o'qituvchilari yoki katta yoshdagi qarindoshlarini ham kuzata boshlaydi. Ular bilan teng muloqotda bo'lishga harakat qiladilar. Shu paytda o'smiri qiziqtirgan masala va muammolarni kim tezroq va erinmasdan hal etib bersa, shu odam bilan muloqotga yaxshi kirishadi.

O'spirin yigit va qizlar o'zlarining ota va onasini ardoqlay boshlaydi. Ularni samimiy hurmat qiladi, xayrixohlik bilan mehribonlik ko'rsatadi. Lekin o'zlariga nisbatan ham xuddi shunday munosabatni talab qiladi yoki istaydilar.

Har bir odamda muloqot madaniyati qanchalik yaxshi rivojlangan bo'lsa, uning jamiyatdagi o'rni ham yuqori darajada bo'ladi. Oila — bu jamiyatning asosiy bo'g'inidir, shunday ekan oilada sog'lom psixologik muhitning yaratilishi, har bir tashkil topayotgan oila asoschilarining muhim vazifasidir.

Mashhur amerikalik psixolog Deyl Karnegi "Yaxshi suhbatdosh yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir" deganda oilaviy munosabatlarda boshqalarni tinglay olish malakasi rivojlangan bo'lishini ham nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas.

K.BOYMATOVA,
Parkent tumanidagi
43-maktab psixologi

Ota-onalarga



Aziz ota-onalar! Sizing farzandingiz boshlang'ich sinfda ta'lim oladimi yoki bu yil maktabga qadam qo'yadimi? Hozirgi sharoitda o'qitish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi metod sifatida mustaqil ishlarga ko'proq e'tibor qarash lozim. Unda "Induksiya" usulining shartlarini o'zlashtirib olishingiz, bolangiz bilan birgalikda bajarishingiz foydadan xoli emas. Boshlang'ich sinflarda deduksiya metodi bilan uzviy bog'liq holda induksiya metodidan ham keng foydalaniladi.

Tushlik

tayyorlayotganda ham ta'lim berish mumkin

Bolalar ushbu o'yin metodida o'zlarini payqamagan holda juda ko'p matematik omillarni o'rganishadi. Masalan, sanashni mashq qilishadi, sonlarni taqqoslaydilar, masalalar yechadilar.

Boshlang'ich matematikadan bolalarning miqdoriy, fazoviy tasavvurlarini rivojlantiruvchi ko'p o'yinlar yaratilgan. "Do'kon", "Zinacha", "Jim", "Arifmetik loto" o'yinlari qatori "Induksiya" usuli samaralidir.

Masalan, birinchi sinf o'quvchilariga yig'indi bilan qo'shiluvchilar orasidagi bog'lanishni tushuntirish uchun bolalarni xulosaga induktiv yo'l bilan olib borish o'rgatiladi.

Ko'rsatmadan foydalanib, oldin hamma doirachalar qanchaligi topiladi.

$$\begin{array}{r} 00000 \quad 00 \\ 5+2=7 \quad 7-5=2 \end{array}$$

Shundan keyin boshqa sonlar hamda boshqa ko'rsatmali materiallar bilan shunday mashqlar bajariladi. Bolalarning o'zlarini ushbu umumiy xulosani ifodalashadi. "Agar yig'indidan birinchi qo'shiluvchi ayrilsa ikkinchi qo'shiluvchi, ikkinchi qo'shiluvchi ayrilsa birinchi qo'shiluvchi qoladi" degan induktiv xulosaga kelinadi. Deduktiv xulosalar bir necha xususiy xulosalarning umumiyidir. Shuning uchun bu metod o'quvchilarni o'yilashga, izlanishga majbur qiladi.

Masalan, yig'indini songa bo'lish xossasini tushuntirishda deduktiv mulohazadan, xulosadan foydalaniladi:

Masalan: a) yig'indini songa bo'lish uchun yig'indini hisoblab, uni songa bo'lish kerak.

$$\begin{array}{l} A) (8+6):2=14:2=7 \\ B) (8+6):2=8:2+6:2=4+3=7 \end{array}$$

Har qaysi qo'shiluvchini songa bo'lish va hosil bo'lgan natijalarni qo'shish kerak. Bunda predmetlar boshqa belgilari bo'yicha ham o'xshash degan taxminiy xulosaga kelinadi. Uyda tushlik tayyorlayotib ham bolangizning induktiv bilimni oshirishingiz mumkin. Buning uchun suhbatbingizdan "4 ta kartoshka, 2 dona qizil va 2 dona sariq sabzi olib ber", "Endi menga 2 ta piyoz va bir bog' ko'kat uzatvor" kabi savollar o'rin olsa kifoya. Mazkur metod bilishning shunday yo'liki, bunda o'quvchining fikri birlikdan umumiylikka, xususiy xulosalardan umumiy xulosaga boradi. Induktiv xulosa xususiydan umumiyga qarab boradigan xulosadir. Bu metoddan foydalanib, biror qonuniyatni ochish yoki qoidani chiqarish uchun misollar, masalalar, ko'rsatmali materiallarni puxtalik bilan tanlash zarur.

Nargiza ORIPOVA,
Toshkent shahridagi

204-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tajriba

"Ertak shakli" usuli

Ona tili darslarida har bir turkum mavzudan keyin o'g'il-qizlarning bilimini sinovdan o'tkazishga odatlanganman.

"Kunlarning birida ota o'g'liga mehnat qilib mablag' to'plash zarurligini uqtiradi. Lekin bolaning onasi ko'ngilchanlik qiladi, "O'g'lim qo'limi qavartirib yurmasin" deb otasidan yashirincha pul beradi. Sezgir ota o'g'li keltirgan pulni o'tga tashlaydi. O'g'il beparvo, loqayt turaveradi. Bu hol ikkinchi marta ham takrorlanadi. Ota o'g'li olib kelgan pulni uchinchi marta ham o'tga tashlamog'chi bo'lganida bola uning qo'liga yopishib, yondirmaslikni so'raydi. Shundagina ota farzandining peshona teri bilan pul topganiga ishonadi va shunday deydi: "O'g'lim, mehnat qilib topilgan pul qadri mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan barcha ne'matlar singari azizdir".

O'quvchilardan matnni qayta hikoya qilib, avvalo imlo xatolarini topishni so'rayman. "O'g'lim" so'zi gapda qanday bo'lak vazifasini o'tayotganini hamda ko'chirma gapni qo'shma gapni aniqlash lozim. Matnda ishtirok etgan fe'llarning vazifa shakliga ko'ra turlari, sonlarning



esa ma'no turlarini ham ajratib ko'rsatish talab etiladi. Qolaversa, o'qituvchi tomonidan matnda ishtirok etgan harflar birikmasiga oid uchta misol keltirish, uyadosh so'zlarni aniqlash kabi topshiriqlar berilsa, o'quvchi mavzularni chuqurroq o'rganadi.

Xurshida RO'ZIYEVA,
Toshkent shahridagi
204-maktabning
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

O'qituvchining cho'ntagiga ko'z tikmang, janob mutasaddilar!

Yangi o'quv yilining boshlanishi biz, o'qituvchilar uchun o'zgacha hayajon va zavq beradi. Sog'inch ko'zlarida balqib turgan o'quvchilarning yugurib yonimizga kelishi, gullar tutishi — ular uchun kerakli inson ekanimizni anglatardi. Afsuski, pandemiya bizni bu shukuhdan mosuvo qilmoqda. Ijtimoiy masofa saqlash, qo'l berib ko'rishmaslik va boshqa shu kabi talab va ehtiyojlar bunga sabab.

Hozirgi vaziyat — urushga teng. Bu virus — ko'rinmas dushman. Hamma o'zini asrashi, ehtiyot choralarini ko'rishni lozim. Shifokorlarimiz ko'rinmas balo bilan jang qilishmoqda. Biz ular uchun ta'zimdamiz. Endi navbat ustozlarga keldi. Biz ham bu jangda mardonavor qatnashamiz va hech qachon ortga qaytmaymiz. Lekin qurolsiz, hech qanday himoya vositalarisiz, hech qanday rag'batiziz jangga kirish g'alabaga eltarmikan? Yoxud "Himoya vositangni ham, qurolingni ham o'zing topasan, biz seni tanimaymiz", deb askar urushga kuzatiladimi?!

...Majlislar zalida hamma o'qituvchilar to'plangan. Maktabimiz rahbarlari, shukurki, vazmin, salohiyatli, insof kishilar. Hamma ularning og'ziga tikilgan, ular esa gapni nimadan boshlashni bilmay turishardi. Sezdimki, qandaydir yoqimsiz topshiriq bo'lgan va uni bizga qanday yetkazishni bilmay turishardi. Va nihoyat, yutinibgina bazo'r so'z boshlashdi: "Xabaringiz bor, yangi o'quv yili 14-sentabrda boshlanadi, shu sababdan yuqori tashkilot aytgan vazifalarni zudlik bilan amalga oshirishimiz kerak. Sinfxonalarimiz epidemiologik vaziyatga moslashtirish, ya'ni xonalarda antiseptik vositalar, chiqindi qutilari, dezinfektsiya vositalari, nam salfetkalar bo'lishini ta'minlash dardor.

Navbatdagi — barcha sinf rahbarlari yuzidagi mazmunda kafolat xati yozib berishadi:

— sinfga tashqaridan infeksiya kirishiga yo'l qo'ymaslik uchun javob-

gar bo'lish;

— o'quvchilarni shaxsan kutib olish;

— o'g'il-qizlar sinfga kirishida ijtimoiy masofani saqlashi, boshqa sinf o'quvchilariga aralashib ketmasligi uchun doimiy nazorat o'rnatish;

— o'quvchilar hojatxonalarda qo'l yuvish va quritish vositalari, sovun yoki antiseptik vositalardan doimiy foydalanishlarini kafolatlash.

Agar yuqoridagi talablarni bajar-masak, maktabimizga chora ko'rilarkan, bizni to'g'ri tushunasiz degan umiddamiz", deya so'zlarini yakunlashdi.

Hamma jim. Hamma sukutda. Bizdagi naqlarga ko'ra sukut — alomati rizo. Aslida ham shundaymikan? Balki inson mavhum, tushunarsiz va chorasiz vaziyat sabab sukut qilayotgandir.

Endi tabiiy, alamli savollar paydo bo'lmoqda. **Birinchidan**, Xalq ta'limi vazirligi matbuot kotibi Prezidentimizning "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq xalq ta'limi muassasalarini qo'llab-quvvatlash, xususan, tegishli hududda umumta'lim muassasalariga yordam ko'rsatishni tashkil etish va muvofiqlashtirish mahalliy hokimliklar tomonidan amalga oshirilishi belgilanganini, shu sababli maktablarda ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan dezinfektsiya vositalarining birortasi ham o'qituvchilar tomonidan xarid qilinmasligini, pandemiya sharoitida umumta'lim maktablariga pirometr,

dezinfektsiya vositalari, dozatorlar hamda antiseptiklar markazlashgan holatda yetkazib berilishini aytdi. Unday bo'lsa, nima uchun barcha tashkiliy ishlar o'qituvchilar zimmasiga tushyapti? Bu voqealar sinfxonalarni ta'mirlash ishiga o'xshab ketayotgandek.

Ikkinchidan, butun dunyo virusning oldini ololmay turgan vaqtda sinf rahbari qanday qilib kafolat xati bilan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarni uddalaydi?

Uchinchidan, sinf rahbarlik alohida olib boriladigan, qoniqarli maosh to'lanadigan ish emas. O'qituvchilik faoliyati bilan birga olib boriladi. Shu yerda yana bir mantiqsizlik bor: sinf rahbari 30–35 o'quvchining har biri qo'lini yuvganini, hojatga borgan-bormaganini, boshqa sinfga aralashib ketmasligini, shaxsan kutib olishni qanday amalga oshiradi? Yoki u dars o'tmaydimi? Ko'plab maktablarda hali hamon ikki tartibli, ya'ni tushgacha va tushdan so'ng dars mashg'ulotlari o'tiladi (darsdan so'ng onlayn ta'lim olmoqchi bo'lganlarning davomati yuritilishi, ularga vazifa, mavzular o'tilishi bu alohida mavzu). Tasavvur qilib ko'ring-a, bu ishlarga jismoniy jihatdan ulgurishning imkoni bormi? Yoki o'qituvchining sog'lig'i ahamiyatsizmi? Shu kabi savollarga mutasaddilardan ko'pminglab o'qituvchilar javob ilinjidamiz.

Aytgancha, ishlamay oylik oldingku, nima bo'пти shu narsalarni qilsang, deyidiganlarga maslahatim — mehnat qonunchiligi bilan yaxshilab tanishib chiqing. Yana, pandemiya davrida ko'plab ustozlar ustamalaridan mahrum bo'lib, iqtisodiy yo'qotishga uchradi. O'qituvchining ham farzandlari, rozg'ori va boshqa zarur xarajatlari bor. U ham avtomashina minishni, so'nggi rusumdagii telefon ishlatishni, huzur bilan oilasi uchun pul sarflashni istaydi. Ularning halol puliga ko'z tik-mang!

Iskandar G'OXIXO'JAYEV

"Ma'rifat" gazetasining shu yil 22-sonida chop etilgan "Oliy o'quv yurtlariga kirishda 18 ta fandan imtihon bo'lishi kerak" sarlavhali maqolada dolzarb masala qalamga olingan.

Ikkinchi darajali fan yo'q!

Haqiqatan ham, 18 ta fandan teng miqdorda test savollari tuzilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki nafaqat o'quvchilar, balki ota-onalar, hatto ba'zi rahbarlar ham ayrim fanlar (musiqa, tasviriy san'at, texnologiya, jismoniy tarbiya)ga ikkinchi darajali

fan deb qarashadi. Shuningdek, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini ham sinovdan o'tkazish lozim. Ish yuzasidan ko'plab idoralar bilan hamkorlik qilamiz. Ba'zi mas'ul xodimlarning yozganlarini o'qish juda mushkul: imloviy xatolari ko'p; noto'g'ri bo'lg'in ko'chirishlar bor; yozuv shakli qing'ir-qiyshiq.

Yana bir taklif: maktab bitiruv imtihonlaridagi fanlardan olingan baholar inobatga olinsa, ya'ni ular ham ball hisobida bo'lsa, nafaqat o'quvchilarning, balki ota-onalarning ham mas'uliyati oshadi. Holbuki, ota-onalar 7-8-sinfidan farzandlariga kasb tanlab, asosiy e'tiborni shu yo'nalishga qaratadi. Natijada bola to'yo'nalish va dunyoqarashga ega bo'lib qoladi.

Komil HAMROYEV,
Qorovulbozor tumanidagi
1-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
o'rinbosari

Men — jajjilar o'qituvchisiman

Oldimga jiddiy vazifalar qo'yganman. Bu katta mas'uliyat va sevgi bilan amalga oshadigan ishlar. Bolalarga bo'lgan muhabbat. Yuragida bu tuyg'u ufurib turgan inson hech qachon hammaga o'xshash o'qituvchi bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf mutaxassisligini tanlashimga ana shu muhabbat yo'l boshlagan. Bolalar birinchi o'qituvchisining mehribon va muloyim qiyofasini butun umr esdan chiqarishmaydi. Bu ustoz ikkinchi onadek hayotida muhim o'rin tutadi. Hayotimni aynan mana shunday mazmunda ko'rishni istadim. Va o'z imijimni yaratish ustida ko'p ishladim.

Bu "ona" birinchi navbatda qat'iy va mehribon, talabchan va quvnoq bo'lishi kerak. Birinchi muallim ta'lim jarayonlariga endigina kirib kelgan quvonchi ko'zlar, bu ko'zlarida o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hayrat va jajji qalblardagi yengil qo'rquvga

duch keladi. Bularni ko'ra bilish esa sinchkovlik talab qiladi. Bu murg'akni qanday odamlar o'rab turubdi, har kuni qanday so'zlarni eshitadi, qanday his-tuyg'ularni boshdan kechiradi? Xuddi mana shu omillar muallimning yelkasiga tushadigan mas'uliyat yukiga yuk qo'shad.

U bolalik o'zi nima ekanini yaxshilab anglab olishi kerak!

Bolalik bu — inson hali ham yordanga muhtoj va qaram bo'lgan, ruhiyat hali ham beqaror bo'lgan davr. Hayotning eng boshidir.

Pedagogik faoliyatimning eng sevimli daqiqalaridan biri bo'ljak birinchi sinf o'quvchilarining

uchrashuvidir. Vaqt o'tib ular katta odamlarga aylanishadi. O'shanda ham ular mehribon bo'lishlarini, go'zalliklarni ko'ra bilishlarini, qish kunlari och qolgan qushlarni parvarish qilishlarini, quyoshning botishi va chiqishidan zavq olishlarini, do'stlikni qadrlashlarini istayman.

Kichik o'quvchi uchun maktabda hamma narsa muhim: sinfdagi qulaylik, darslikning go'zalligi, o'qituvchining so'zlari, tashqi ko'rinishi, partadoshi, hatto derazadan tushadigan quyosh nurlari ham... Kichikina odamning qalbini aql va yaxshilik nuri bilan to'ldirishga harakat qilaman.

Bolani, uning tashqi ko'rinishi, qobiliyati, afzalliklari, kamchiliklaridan qat'i nazar, sevisht kerak. Fikrimcha, o'qituvchi yaxshi va sodiq do'st, unga yordam so'rab murojaat qilishingiz, birga yig'lashingiz yoki kulishingiz, dars mavzusini yoki yangi filmni

muhokama qilishingiz mumkin. Bilmayman, kelajakda ularning qay biri qanday insonga aylana-ydi, asosiysi, uni hozir inson qilib shakllantirishdir. Ularning biri yaxshi bahoga, ikkinchisi qiziqarli topshiriqqa, uchinchisi muhabbatga, boshqasi esa dalda va e'tirofga muhtoj. Ularga kerak vaqtda kerak narsani bera olish muhim.

O'zimga qo'yiladigan yuqori bahoni faqat o'quvchilarimdan olishni istayman!

Agar ular qiziqish va faollik ko'rsatsalar, men baxtliman. Shuning uchun har bir darsni ular uchun zavqli, qiziqarli maydonga aylantirishga intilaman. Bolalarning qoldirmay maktabga kelishlari va dars tomon talpinishlari, darsning har bir lahzasini ko'zlarida millitillagan g'ayrat bilan o'tkazishlari uchun ijodning barcha turlari va imkoniyatlaridan foydalananman. Va buning evaziga eng "a'lo"

bahoni ulardan olishni istayman.

Tasavvur qiling, har kuni darsga kelasiz va sizni intizor bo'lib kutayotgan bir talay bolalarning chug'ur-chug'uri ichiga kirib borasiz. Ularning har biri darhol sizga o'z yangiliklarini aytishga shoshilishadi... Kecha dadasi bilan cho'milishga borganini, singlisining tug'ilgan kunida shirinlik shamini qanday puflashgani, mushuk-chasining suv to'la ariqqa tushib ketgani... ba'zan salom berishni ham unutib o'z qalbini junbushga keltirgan va hodisotlarni siz bilan bo'lishishadi. Ularni sevsangiz hammasini jon qulog'ingiz bilan eshitasiz. Ularga jo'r bo'lib kulasiz, achinasiz, yig'laysiz. Bordi-yu kayfiyatingiz tushkunligi yoki tobgingiz yo'qligini sezib qolishsa sizni quchoqlab "bo'g'ib qo'yishlari" ham hech gapmas. Bunday darajaga ko'tarilganingiz eng baxtli ustozga aylanganingizdan dalolat!

Gulchehra AHMEDOVA,
Mirobod tumanidagi
125-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Eyler teoremasi va uning bir isboti

Teorema (Leonard Eyler 1747-yil): Har qanday uchburchakka tashqi va ichki chizilgan aylana markazi orasidagi masofa l uchun quyidagi tenglik o'rinli:

$$l^2 = R(R - 2r)$$

Isbot: Berilgan chizmaga ko'ra, $\triangle ABC$ ga tashqi chizilgan aylana markazini O , ichki chizilgan aylana markazini O_1 deb belgilaymiz. U holda $OO_1=l$, $OF=R$, $O_1K=r$ $O_1K=r$ bo'ladi.

AC yoy BF bissektrisa yordamida F nuqtada teng ikkiga bo'linadi:

$$\overline{AF} = \overline{FC}$$

AB yoy CL bissektrisa yordamida L nuqtada teng ikkiga bo'linadi:

$$\overline{AL} = \overline{LB}$$

Bundan esa,
$$\overline{LAF} = \overline{LB} + \overline{FC}$$

$\overline{LAF} = \overline{LB} + \overline{FC}$ kelib chiqadi. O_1CFO_1CF burchak esa LB va FC yoylar yig'indisining yarmi bilan o'lchanadi va bundan $\angle CO_1F = \angle O_1CF$ $\angle CO_1F = \angle O_1CF$ ekanini ma'lum bo'ladi. Demak, O_1FC uchburchakning O_1F va CF tomonlari o'zaro teng ekan.

Endi, qanday qilib $O_1F^2 = 2R \cdot FM$ tenglik o'rinli ekanini tushunishga harakat qilamiz. Birinchidan, $O_1F = CF$. $\triangle CMF$ ning to'g'ri burchakli uchburchakligidan

$$MC^2 = CF^2 - FM^2 (*)$$

Ikkinchidan, $AM = MC$ hamda M nuqtada kesishuvchi AC va FH vatarlar kossasidan $AM \cdot MC = FM \cdot MH$. Bundan

$$MC^2 = FM \cdot MH (**)$$

(*) va (**) tengliklarni birlashtirib, quyidagi ishlarni bajaramiz:

$$CF^2 - FM^2 = FM \cdot MH$$

$$CF^2 = FM \cdot (FM + MH)$$


$$CF^2 = FM \cdot FH$$

$$CF^2 = FM \cdot 2R$$

$$O_1F^2 = 2R \cdot FM$$

OO_1F uchburchakka ko'ra quyidagiga egamiz:

$$O_1F^2 = OO_1^2 + OF^2 - 2OF \cdot ON$$



$$2R \cdot FM = l^2 + R^2 - 2R \cdot ON$$

$$2R \cdot FM = l^2 + R^2 - 2R(OM - r)$$

$$l^2 + R^2 = 2R(FM + OM - r)$$

$$l^2 + R^2 = 2R(R - r)$$

$$l^2 = R^2 - 2Rr = R^2 - 2Rr$$

Teorema isbotlandi.


2-isbot: birinchisiga nisbatan ancha sodda isbotni keltiramiz. Avvalo quyidagi lemmani isbotlab olamiz.

Lemma: aylanaga ichki chizilgan ABC uchburchakning inmarkazi I bo'lib, BI to'g'ri chiziq aylananing D nuqtada kesib o'tsa, u holda $AD = ID = CD$ bo'ladi.

Isbot: ABC uchburchakda AI va BI lar bissektrisa ekanidan $\angle BAI = \angle CAI = \frac{\alpha}{2}$,

$$\angle ABI = \angle CBI = \frac{\beta}{2}$$

Ikkinchi ham CD vatarga tiralgani hamda undan bir tomonda joylashgani uchun $\angle CBD$ va $\angle CAD$ ichki chizilgan




burchaklar o'zaro teng. $DAIDAI$ uchburchakning $\angle DAI$ burchagi $\frac{\alpha}{2} + \frac{\beta}{2}$ ga teng ekan. Boshqa tarafdin bu uchburchak-

ning $\angle DIA$ burchagi AIB uchburchak uchun tashqi burchak bo'lib, uchburchakning burchaklariga oid xossaga ko'ra, uchburchakning bitta tashqi burchagi o'ziga qo'shni bo'lmagan ikkita ichki burchagi yig'indisi-

ga teng. Demak, $\angle DIA = \frac{\alpha}{2} + \frac{\beta}{2}$.

Bundan DAI uchburchakning ikkita burchagi o'zaro teng bo'lib, u teng yonli uchburchak degan xulosa kelib chiqadi. Shunday qilib, $AD = ID$. Teng ichki chizilgan burchaklarni tortib turgani uchun AD va CD vatarlar ham bir-biriga teng. Lemma isbotlandi.



Doston MUSURMONOV,
Xatirchi tumanidagi 35-maktab o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Topishmoqli metod

Kichik maktab yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim. Ayniqsa, 1-2-sinfda bolalar o'z layoqatlarini to'liq namoyon qila olmaydilar. Ulardagi tabiiy, tug'ma anatomik-fiziologik layoqat o'quv va mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Bu borada biz pedagoglar o'z ishimizga ijodiy yondashishimiz lozim.

Ma'lumki, qobiliyat faoliyatda ro'yobga chiqadi. Ayrim paytlar pedagoglar o'quvchini jiddiy tekshirmay, qobiliyatsizga chiqaradilar. Bunday xulosa chiqarish o'qituvchining qo'pol psixologik nuqsoni hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchiga xorijiy tilni o'rgatayotganda ana shu kamchilikka yo'l qo'ymasligimiz kerak. Tadqiqotchilarning kuzatishlaricha,

har to'rt nafar maktab o'quvchisidan bir nafari o'qituvchi tomonidan alohida qo'llab-quvvatlanishga ehtiyoj sezadi. Bu o'qituvchining hafta davomida har bir o'quvchi bilan ikki-uch marta yakka-yakka muloqotda bo'lishini taqozo etadi. Ma'lumki, 1-sinfda o'quvchilar og'zaki nutqi bilan ishlanadi. 2-sinfda esa mavzu doirasi kengayib, yozuv bilan mustahkamlanadi.

Ko'p yillik tajribamdan bilamanki, o'quvchi o'zi bajarganda 80 foiz, ustoz bilan bajarganda 90 foiz bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'ladi. Shu tufayli ular bilan alohida shug'ullanganda "Vatan", "Ajdodlarimiz", "Oilam", "Fasllar" mavzusidagi rasmlar, harakatli ko'rgazmalardan foydalanaman. Masalan, fil bolalarning rasmini ko'rgan jazzi bolalar uning sifatlarini birin-ketin ingliz tilida aytib boshlaydilar:

It is a big animal,
It has a long nose,
It has a short tail,
It can run,
What is it?
Ilon rasmini ko'rgach:
It is long,
It cannot run,
It can swim,

It cannot hop
What is it?
Qush rasmini ko'rib:
It is small,
It can swim,
It can fly,
It can walk,
What is it?

O'quvchilar bunday topishmoqli mashg'ulotlardan so'ng inglizcha so'zlarni xotiralarida ancha vaqtgacha saqlaydilar. Har bir o'qituvchi darslarini ana shunday tashkil etsa va ota-onalar bilan doimiy hamkorlikda ish olib borsa o'quvchilar bilimida bo'shliqlar paydo bo'lmaydi.

Dildora MIRZAYEVA,
Sirg'ali tumanidagi
300-IDUMning
ingliz tili o'qituvchisi

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari

Pandemiya kishilik jamiyatini og'ir sinovlarga duchor qilib, ko'plab sohalarida yangilanish va o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. Ana shunday o'zgarishlardan biri mamlakatimiz ta'lim sohasiga onlayn ta'limning kirib kelishi bo'ldi.

Masofaviy ta'lim to'g'risidagi ma'lumotga ilk bor o'quvchilik davrimda duch kelganman. "Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiasini" fanidan "Avstraliya" mavzusini o'rganayotganimizda olis, cho'l hududlar aholisining farzandlari radio vositasida o'qitilishi haqida bilganmiz. O'tgan asr oxiri va asrimiz boshlariga kelib internet va telekommunikatsiya vositalarining rivojida yutuqlar masofaviy ta'limni yangi bosqichga olib chiqdi. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ta'lim tizimi, ayniqsa, oliy ta'limda masofaviy ta'limdan keng foydalanishga o'tildi. Ammo mamlakatimizda ta'limning bu yo'nalishiga e'tibor qaratilmadi. Bunga, natijada, oliy ta'limda chuqur ildiz o'tgan korrupsiya sabab bo'ldi. Chunki masofaviy ta'lim joriy etilsa, qabul jarayonidagi korrupsiya ildiziga bolta urilgan bo'lardi.

Xullas, masofaviy ta'limga pandemiya sabab e'tibor qaratishga majbur bo'ldik. Shunday ekan, ta'lim tizimi oldida ikki yo'l: tayyor andozlardan — xorijiy mamlakatlar tajribalaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish yoki milliy mentalitetimiz va mamlakatimiz imkoniyatlariga mos keladigan, yangi "Milliy ta'lim" tizimini yaratish ko'ndalang bo'lib turibdi.

Quyidagina Respublika ta'lim markazi tomonidan o'tkazilgan "Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiyada ham masofaviy ta'lim masalalariga e'tibor qaratildi. Xalqaro ekspertlarning ma'ruzalaridan anglashdik, masofaviy ta'lim hali dunyo mamlakatlarida ham rivojlanish bosqichida ekan. Demak, biror mamlakat ta'lim tizimini andoza sifatida qabul qilishga erta. To'g'ri, bu borada ayrim mamlakatlar qator yutuqlarga erishgan. Ammo qolip sifatida qabul qilsa bo'ladigan tizim yaratilganicha yo'q.

Salkam 40 yillik ish tajribasiga ega amaliyotchi pedagog sifatida o'qituvchilarimiz salohiyati, ota-onalar va o'quvchilarning ta'limga munosabatini yaxshi bilaman. Pandemiya sharoitida ta'lim tizimidagi vaziyat va konferensiyadagi ishtirokimdan so'ng masofaviy ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi fikr-mulohazalarim bilan o'rtoqlashishni lozim topdim. Mamlakatimizda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, ijtimoiy muhit va mentalitetimizni hisobga olgan holda bir qator yangiliklarni ta'limda dadillik bilan qo'llash mumkin degan xulosaga keldim.

Barcha sohalarida yuqoridagi imkoniyatlari va darajasini boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda, odatda salbiy fikrlarni eshitishga o'rganib qolganmiz. Ammo so'nggi yillarda ta'limdagi o'zgarishlarni har qanday salbiy fikrlar inson ham tan olsa kerak. Uzoqqa bormaylik, karantin boshlanishi bilan teledarslar yo'lga qo'yilishi mazkur e'tiborning yaqqol isbotidir. Xo'sh, biz ushbu imkoniyatlardan qay darajada foydalandik?

Avvalo, teledarslarni efriga joylashtirish strukturasi bir qator xatoliklarga yo'l qo'yildi.

Birinchiidan, teledarslar uchta telekanalda 1-4, 5-8, 9-11-sinflar kesimida tashkil etildi. Bir qarashda barchasi to'g'ri va mantiqiy joylashtirilgandek tuyuladi. Ammo ...

Ikkinchiidan, darslar sinflar ketma-ketligida, ya'ni bir sinfning darsi to'liq o'tilib bo'lgach, ikkinchi sinfning darsi boshlanishi tartibida joylashtirildi. Bu yerda ham bir qarashda barchasi to'g'ridek tasavvur uyg'onadi. Ammo...

Uchinchiidan, teledars mashg'ulotlariga uyga vazifalar, savol va topshiriqlarning javoblari teledarslarni o'tayotgan o'qituvchilar tomonidan jarayonning o'zida aytib ketildi. Bu esa o'quvchilarni mavzu, savol va topshiriqlar ustida ishlashdan, eng muhimi, fikrlashdan bi-

roz to'xtatadi. Ko'pchilik bu fikrga teledarslarda dars bosqichlarining barchasini qamrab olish uchun shunday qilinishi kerak, deya e'tiroz bildirishi mumkin. Ammo...

Endi mana shu "ammo"larni tahlil qilsak. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda ko'p oilalarda odatda farzandlar orasidagi yoshi tafovuti 2-3 yil. Aksariyat oilalarda esa bir dona televizor bor. Bu ko'plab oilalarda aka-uka va opa-singillar uchun dars vaqtining parallel kelib qolishiga olib keladi. To'g'ri, bu muammoni to'liq hal qilish imkoniyati yo'q. Ammo sinflar joylashishini o'zgartirish hisobga parallellikning oldini olish mumkin. Bunda yana bir muammo — boshlang'ich sinflari darslarining efriga kech uzatilishining ham oldi olinadi. Amaldagi jadval bo'yicha 4-sinf o'quvchilari uchun darslar kunning ikkinchi yarmida efriga uzatiladi.

Uzoq yillik faoliyatim davomida shunga amin bo'ldimki, ikki smenada dars o'tiladigan maktab rahbarlari, o'quvchilarning va o'qituvchilarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yuvchi ikki toifaga bo'linar ekan. Ya'ni, birinchi toifa rahbarlar boshlang'ich sinflar darslarini birinchi smenaga, ikkinchi toifa rahbarlar esa ikkinchi smenaga qo'yishadi. Birinchi holat o'qituvchilar uchun biroz qiyinroq bo'lsa-da, o'quvchilarning o'zlashtirishi yuqori bo'ladi. Ikkinchi holatda esa aksincha. Hozirgi teledars jadvallari esa, afsuski, ikkinchi toifa maktablari kabi tuzilgan.

Shu nuqtayi nazaridan, dars jadvaliga o'zgartirish kiritish orqali muammolarga qisman bo'lsa-da yechim topish mumkin. Masalan, teledarslarning uchta telekanal orqali uzatilishini e'tiborga olgan holda birinchi soatga 1-, 2-, 3-sinflarning, ikkinchi soatga esa 4-, 5-, 6-sinflar darslarini joylashtirish boshlang'ich sinflarga ertaroq dars o'tilishi, darslar orasida tanaffus bo'lishi, oiladagi o'quvchilar darslarining parallel kelish ehtimolini kamaytirish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchiidan, dars soatlari orasida tanaffus bo'lishi bolaning charchamasligi, darslardan zerikmasligi, eng muhimi, o'quvchilar ko'zlari tolib qolmasligi uchun zarur. Yuqori sinflarning darslari

esa oldingi sinflar o'rniga yuqoridagi tartibda va ketma-ketlikda joylashtirilib boriladi.

Uchinchiidan, teledarslarning eng muammoli jihati dars jarayonida savol va topshiriqlarga o'qituvchi tomonidan javob berilishidir. Bu esa o'quvchilarning dangasaligini oshirib, ularni fikrlashdan to'xtatadi.

Mazkur teledarslarni suratga olishda aytilgan muammolarni e'tiborga olish zarur. Xo'sh muammoni qanday hal qilish mumkin? Agarda teledarslar oldingi qolipda suratga olinishda davom ettirilsa, samaradorlikni keskin pasaytirib yuborishi shubhasiz. Shuning uchun suratga olishda darslarning tarkibiy tuzilishini ham, mazmunini ham o'zgartirish kerak. Bunda asosiy e'tibor yangi mavzuni tushuntirish va mustahkamlashga qaratilib, uyga vazifa va topshiriqlarni tekshirish va baholash fan o'qituvchilariga qoldirilishi kerak.

Men ko'proq o'z mutaxassisligim bo'lgan tarix fanidan teledarslarni kuzatib bordim. Nazorat-sinov darsini olib borayotgan o'qituvchining holatiga kulishni ham, yig'lashni ham bilmaysan kishi. O'qituvchi test savollarni e'lon qilgach, o'n-yigirma soniyadan so'ng o'zi javobini aytmoqda. Mana shu vaziyatda o'qituvchining javoblarni e'lon qilishi qanchalik shart? Axir, u butun respublikadagi o'quvchilarni baholay olmasligi aniq-ku. Savollarni e'lon qilib, nari borsa murakkab testlarni ishlash texnologiyalari haqida tushuncha bersa kifoya. O'quvchilar test javoblarini fan o'qituvchilariga topshirib, baho olishi mumkin. Javoblarni teledarslardan olgan test topshirig'ining baholanishi sinflarda uchrab turadigan ko'chirmakashlikning yangi shakli bo'ldi, menimcha.

Taklim: yangi teledarslarni suratga olishda uyga vazifalarni tekshirib, baholashni fan o'qituvchilariga qoldirish kerak. Agar onlayn darslar davom etadigan bo'lsa, maktablar tashkil etgan "Kundalik.com" dasturi yoki telegram kanallaridagi guruhlar orqali o'quvchilar o'z o'qituvchilariga javoblarni yuborib haqqoniy baholarini olishsin.

Qolaversa, yuqori sinf o'quvchilari uchun "Zoom" dasturi orqali videokonferensiya shaklidagi darslarni ham tashkil etish mumkin.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi 63-maktabning
tarix fani o'qituvchisi

Mulohaza

O'z istagini bolaga singdirish — katta xato!

Maktabimizda ta'lim ikki tilda — rus va o'zbek til-larida olib boriladi. Men rus sinflariga davlat tili, ya'ni o'zbek tilidan dars beraman. O'tgan yillardagi tajribam va kuzatuvlarim davomida ayrim muammolarga duch kelganman.

Nafaqat muallim, balki ona sifatida ham rus sinflaridagi o'zbek oilalari farzandlarining muloqot va ta'lim muhitiga befarq qarab turolmayman. Boisi, rus sinflari rus tilida so'zlashishini o'rgatish uchun emas, rus tilida ta'lim berish uchun ixtisoslashgan. Albatta, ruschada ham bemaol so'zlasha oladigan, shu tilda atrofdegilar bilan erkin muloqot qilishga layoqatli, tilni o'z ona tilidagi tushunadigan bolalar ko'p. Biroq ota yoki ona rus tilini bilmaydi va u o'z istagining ijobatini farzandida ko'rish niyatida. Oilada millatimizga xos o'zlikni, urf-odat-

lar-u qadriyatlarini saqlab qolayotgan, bir vaqtning o'zida farzandlariga bolalikdan rus tilini o'rgatayotgan, uyda ikki tilda so'zlashayotgan bobo va buvonlar yoki ota-onalar ham bor. Shunday o'quvchilarni ko'rganman: hali maktabga chiqmay turib bog'cha yoshidayoq katta-katta ertaklarni rus tilida bemaol xatosiz so'zlay oladi. Ular shunchaki so'zlamaydi, hatto mazmun-mohiyatini tushuntirib bera oladi. Ularning nutqi ham chiroyli, masal, she'rarniyam ifodali aytib beradi. Bunday bolalarga havas qilasan kishi. Bolalarni rus sinfida o'qitishni istov-

chi ba'zi ota-onalar ham borki, bola mutlaqo rus tilini bilmaydi. Buning ustiga, o'quv yili boshlanishiga bir-ikki oy qolganida bolani repetitora berib, uddalashga urinishadi. Bu vaziyatda birinchi sinfga chiqayotgan bolakay asosan ilk suhbat jarayonida beriladigan savollarning javobini o'rganadi, to'g'rirog'i, faqat yodlaydi. Bolada savolga javob bor, javob to'g'ri, lekin nima deyayotganini tushunmaydi. Bir amallab, quruq yodlatib, suhbatdan ham o'tib rus sinfga qabul qilindi deylik. Endi bundan buyog'iga hamma og'irlik bolaning zimmasiga tushadi. Goh tushunib, goh tushunmay bola bechora sinfdan sinfga o'tib boradi. Ammo bir-ikki yillik ta'limdan keyin o'quvchi bilim olishga nihoyatda qiyinaladi. Hamma muammo esa o'sha tushunmovchilikka kelib taqala-

di. Ota-ona o'z istaklaridan kelib chiqib, kerak bo'lsa majburlab bola rus sinfga joylangan.

Sinfdan sinfga ko'tarilgan sari fanlar ko'payib, dastur ham soddadan murakkabga qarab murakkablashib boraveradi. Fizika, kimyo, geografiya, biologiya kabi fanlardan endi bolamiz tushunganini so'zlab berishi rus tilida berilgan matematik misol va masalalar ustida bosh qotirishi kerak bo'ladi. Yaxshi tushunmayotganidan bola siqiladi, bu holat uni maktabdan bezdiradi, o'ziga ishonchi yo'qolishiga sabab bo'ladi. O'zini keraksizday his qila boshlaydi, ongida bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliqni esa hech qanday boylik, qimmat pulga yollangan repetitor, yakka tartibda shug'ullanuvchi uy o'qituvchisi — hech kim, hech nima to'ldira olmaydi.

Maktabda 7-rus sinfidan "O'zbekiston tarixi"dan ochiq dars mashg'ulotini kuzatdim. Mening darsimda sinfning eng oldi o'quvchisi darsda umuman qatnashmadi. Mavzu juda qiziqarli: "Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni" edi. Dars tugagandan keyin undan "Buyuk sohibqiron bobomiz hayotiga oid shunday mavzuga bag'ishlangan darsda nimaga qatnashmading?", deb so'radim. "Hammasini tushunib o'tirdim, faqat gapirishga qiyinalaman, o'zbekcha bo'lsa, gapira olardim, lekin ruscha gapirishim kerak-da", dedi o'quvchim xijolatlik bilan.

Shunday ekan, aziz ota-onalar, nima qilamiz bolani qiyinab?! Ularga yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo'yamlik!

Go'zal MAMAJOVA,
Namangan shahridagi
7-maktab o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

O'qituvchi minbari

Zamonaviy o'qituvchida quyida-gi sifatlar mujassam bo'lishi lozim:

- Yuksak ma'naviyatlilik;
• Kreativlik;
• O'z fanini yaxshi bilish;
• Nutq madaniyatiga ega bo'lish;
• AKT va chet tillarni bilish;
• Talabchanlik;
• Adolatlilik;
• Shirinso'zlik.

Agar o'qituvchida shu xislatlar jam bo'lsa, u o'quvchiga sifatlari ta'lim berishi aniq. Biroq ta'lim sohasida qator muammolar ham borki, ularni ko'z oldimizga keltirsak, hammasi faqat o'qituvchiga bog'liq emasligi ayon bo'ladi.

Yana islohotlarga muhtojmiz

Avvalo sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish juda zarur. Bir sinfda 35-38 nafar o'quvchi ta'lim olyapti. Rivojlangan davlatlar tajribalariga asosida sinf o'quvchilari sonini 12-15 nafarga kamaytirish yoki asosiy fanlar (ona tili, matematika, kimyo, fizika kabi)-ni bo'lib o'qitish kerak. Bu usul juda katta samara beradi. O'quvchi uchun ham, o'qituvchi uchun ham qulay. Qolaversa, har bir o'quvchi darsda ishtirok etib, baholalanishi, o'qituvchi ularning har biri bilan alohida, bemaol ishlashi mumkin.

O'quvchilar va ota-onalar jamoasiga fan o'qituvchilarini tanlash huquqini berish kerak. O'qituvchilar so'rovnomaga o'tkazish orqali tanlanadi va pedagogik kengash mahokamasiga qo'yib, shu orqali dars taqsimlanadi. Bu tizim pedagoglar o'rtasida sog'lom raqobatni keltirib chiqaradi va har qanday dangasa, bilimsiz o'qituvchining o'z ustida ishlashiga turki beradi. Natijada sifatsiz ta'lim beruvchi kadrlar o'z-o'zidan kamayadi.

Shu o'rinda yana bir fikrimni ta'kidlab o'tsam. Direktor o'rinbosarlarining maoshi miqdorini qayta ko'rib chiqish kerak, nazarimda. Agar ularning ham ish haqi miqdori ko'tarilsa yoki qo'shimcha ustama joriy etilsa yaxshi bo'lar edi. Qo'shimcha 10 soat darslari uchun ta'ilda pul to'lanmaydi, shu sabab, ayrim iqtidorli, o'z ishini ustasi bo'lgan rahbarlar "dars o'tganini yaxshi ekan", deb lavozimlaridan bosh tortib, oddiy o'qituvchilikni tanlamoqda.

Muhabbatxon ORIPOVA, Namangan shahridagi 62-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Pedagogik nuqtayi nazar

Shekspirning shoh asari

Ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspirning shoh asari "Hamlet" tragediyasi 9-sinf adabiyot darsligiga kiritildi. Ushbu asar ilk bor XIX asrning 30-yillarida Abdulhamid Cho'lpon tomonidan tarjima qilingan. Darslikda esa O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan aslyatdan o'zbek tiliga o'girilgan nusxasi berilgan. Asarda insoniyat paydo bo'lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezigulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va

Musiqa madaniyati maktabdan shakllanishi kerak

Barcha fanlar qatori musiqata'limning ham bola shaxsini shakllantirishdagi o'rni beqiyos. Boshlang'ich sinflarda ovoz sozlash mashqlaridan so'ng qo'shiq o'rgatishga o'tish mumkin. Bunda avval qo'shiq matni va mualliflari haqida qisqacha ma'lumot suhbat tarzida beriladi. Suhbat o'quvchilar mavzu haqida to'liq tushunchaga ega bo'lib, fikr-mulohazasini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishiga yordam beradi. Ritmik jihatdan qiyinchilik tug'diradigan qo'shiqlarning ritmini avval chapak yordamida o'rganib, so'ng so'zlar bilan takrorlab, so'z va ritm aniq o'zlashtirilgandan so'ng ohang yo'li o'rgatilishi tavsiya etiladi. Musiqaga savodi mashg'ulotlarida esa sekin-asta milliy cholg'ular bilan tanishtirgan holda keyinchalik notalar haqidagi bilimlar boyitilib boriladi. Boshlang'ich sinflarda bolaning tez toliqishini inobatga olgan holda amaliy mashg'ulotlardan so'ng musiqaga tinglash, musiqaga ijodkorligi hamda bolalarning musiqaga asboblariga jo'r bo'lib kuyilishi kabi faoliyat turlarini amalga oshirish mumkin.

Irodaxon NAZAROVA, Oltiariq tumanidagi 37-maktabning musiqaga madaniyati fani o'qituvchisi

Boy berilayotgan umr

Aziz zamondosh, tan oling, biz texnikaga, virtual olamga shunchalik mahliyo bo'lib qoldikki, natijada nainki vaqtimizni, balki oqibatimizni-da boy berib qo'yayotganimizni sezmayapmiz ham. Ota-onamizdan "Imo" dagina xabar olyapmiz, issiq nonlarning suratinigina yuboraypimiz, bolalarimizga bizning o'rminizga telefon alla-yu ertaklar aytayapti. Darsini kompyuter qilib beryapti. Qayoqqa bormaylik, qo'limizda telefon: ishda, majlisda, uyda, hatto biron chaqchaqlashish uchun tashkil etilgan choyxonadagi do'stlar davrasida ham shu zormandadan ajralmaymiz. Bemor yaqinimizga "sms" yozib yuboramiz, ko'makka muhtoj birodarimizni-ku allaqachon unutilib yuborganmiz. Biroq endi ota-onamizning qaddi

ning mohiyatini chuqur mushohada qiladi. Sodor bo'lgan qabohatni, agar maqsad qasos olish bo'lganida, u xanjarining uchi bilan bir zumda hal qilishi va bu bilan ancha azob-uqubatlariga chek qo'yishi mumkin edi. Hamlet o'z tashvishlari qobig'iga o'ralib qolgan kishi emas. U o'limdan qo'rqmaydi, fikr kishisi sifatida o'limning mohiyatini bilmog'chi bo'ladi. Hayot shunchalar qiyin bo'lishiga qaramay, odamzodning yashashga intilishi sabablari borasida o'ylanadi. U dunyoga shuncha-ki kelib ketayotgan o'tkinchi emas, balki ezigulik manzilini ko'zlab borayotgan yo'lovchidir.

Gavharoy TO'XTABOYEVA, Uchqo'rg'on tumanidagi 9-maktab o'qituvchisi



Ustozlar — jamiyatning ongi

Ko'pincha ommaviy axborot vositalarida qo'shiqchi-yu aktyorlarni, sportchi yoki boshqa yulduzlarni e'tirof etadilar, turli mukofotlar bilan taqdirlaydilar. Tinimsiz mehnat qilgan ustozlar kamdan kam hollarda eslansa, bundan ko'ngil xira tortadi. Aziz ustozlar, siz bandalarning nazaridan chetda bo'lishingiz mumkin. Ammo hamisha Ollohning nazaridasiz. U sizni qizg'angani va buyukligingiz sabab odamlar nazaridan yashiryapti. Inson tanasini jamiyatga qiyoslasak, uning barcha a'zolari jamiyatdagi muayyan shaxslardir. Tananing tashqi a'zolari va go'zalligi — yuz, ko'z, lab, burun, quloq, qo'l, oyoq va hokazolar o'zgaralarning e'tiborida bo'lishni yoqtiruvchi insonlardir. Ular doimo o'ziga oro berishga, ziyatlanishga va insonlar ko'ziga chiroyli ko'rinishga harakat qiladilar. Siz esa jamiyatimizning ong-u shuurisiz. Demak, muhtaram ustozlar, siz oddiy ko'z payqay olmaydigan, qalb ko'zi bilan ko'rsa bo'ladigan va odamlarning nazari tushmasa ham, Yaratganning nazari doimo tushib turadigan joydasiz.

Javlonbek TOSHBOLTA'YEV, Toshloq tumanidagi 35-maktab o'qituvchisi

Buyuklar erishgan buyuk g'alaba

1980 — 1990-yillarda o'rta maktab o'quvchisi edim. Badiiy kitoblar o'qishni juda-juda yaxshi ko'rdim. Kitoblar ichidan faqat 1941—1945-yillardagi suronli urush voqealari tasvirlangan asarlarni topib o'qir edim. U paytlari kutubxonalarda bunday mavzudagi kitoblar ko'p bo'lardi. Maktab kutubxonasida men o'qimagan "urush kitoblari" qolmadi. So'ng sekin-asta tuman markazidagi kutubxonaga "hujum" boshladim. O'rtoqlarim faqat sevgi-muhabbat haqidagi asarlarni izlashardi, men esa...

Xalqimizning mard, vatanparvar, buyuk o'g'lonlari so'nggi tomchi qoni qolguncha ona zaminni dushmandan himoya qildilar. Har bir qarich yer uchun jon olib, jon berdilar. Mashhur general Sobir Rahimov, Belorussiya o'rmonlarida fashistlarga qarshi kurashib, ularga dahshat solgan hamyurtimiz Mamadali Topiboldiyev kabi xalqimizning yana boshqa ko'plab fidoyi, asl farzandlarining mislsiz qahramonligi abadiyatga muhrlanib qoldi. Ularning nomi hech qachon unutilmaydi. Biz ular tufayli dunyoga keldik, tirikmiz, yashayapmiz.

Dilfuza SIDDIQOVA, Bag'dod tumanidagi 10-maktab o'qituvchisi

Masofaviy ta'lim va boshlang'ich ta'lim

Masofaviy ta'lim qator qulayliklarga ega ekanini barcha pedagoglar tajribada sinab ko'rishdi. Ammo uning o'ziga yarasha muammolari ham yo'q emas. Masalan, boshlang'ich sinflarda masofaviy ta'limga boshqacharoq yondashish, kerak bo'lsa, alohida dastur ishlab chiqish kerak degan xulosaga kelmoqdamiz. Chunki yozish, o'qish, hisoblashni endi o'rganayotgan bola pedagogning shaxsan qaramog'iga muhtoj bo'ladi. Unga tegishli ko'nikmalarni na onlayn, na televizion ta'lim, na ota-onasi berishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda masofaviy ta'limni tashkil etishda o'qituvchilar aynan shu borada muammolarga duch kelishdi. Chunki o'quvchi va ustoz munosabatlarining bu bosqichi o'rmini boshqa narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi. Biror mashg'ulot yaxshi o'zlashtirilmay qolinishi, o'quvchining kelgusidagi savodsizliklariga yo'l ochib yuborishi xavfi bor. Shu sabab ham masofaviy ta'lim va boshlang'ich ta'lim munosabatlarini jiddiy ko'rib chiqish kerak.

Nargiza XOLIYOROVA, Qarshi tumanidagi 25-maktab o'qituvchisi

Ertaklarning bola tarbiyasidagi ahamiyati

Tarbiya yo'nalishlaridan biri — bu bolani badiiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi, jumladan, ertaklar bilan tarbiyalash. Ertaklar chin ma'noda noyob durdonalar hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodi asarlarida Vatanni sevuvchi, uning tashvishini o'zining tashvishi, quvonchini o'zining sevinchi deb biluvchi, ona tuprog'i uchun kurashuvchi kishilar sharaflanadi, eng yomon so'zlar va qora bo'yoqlar salbiy obrazlarga nisbatan qo'llanadi. Tarbiyada badiiy asar muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagidagi Qimmatning ulq-atvori, qiliqlari, xatti-harakati o'quvchi qalbi-

Qiyosi yo'q tuyg'u

Ona! Shunday bir zotki, uni ta'riflashga so'z ojiz. U o'zidagi bor ijobiy xislatlar dilbandiga ko'chishini orzu qiladi, o'y-xayolga beriladi. Neki yaxshi narsa bo'lsa, o'ziga ko'zi qiyamay, dilbandi uchun ilinadi.

Shular haqida o'ylaganimda O'zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi Jannat xola qiyofasi ko'z ongimda namoyon bo'ladi. Hadsiz iztiroblar iskanjasida kelajakka umid, ishonch bilan yashash nima ekanligini Jannat xola timsolida his etaman. Davr va vaziyat taqozosi bilan qochoqqa aylangan farzandning onasiga yashash nechog'lik qiyin bo'lganligini asarni o'qigan har bir kitobxon tushunib yetadi. Bu romanni dastlab talabalik yillarimda o'qiganman. Yosh ulg'ayib kasbiy tajribalar ortgani sayin bunday asarlarni qayta-qayta qo'lga olishga, mutolaa qilishga ehtiyoj ortib boraverarkan. Ushbu asarni o'quvchilarim bilan birga o'qib, muhokama qildik. Bolalar kitobdan olgan taassurotlarini hayajon bilan so'zlab, tugata olmaydi. Fikrlar qarama-qarshiligi, bahs-munozaralarning oxiri ko'rilmaydi. Badiiy asarning tarbiyaviy ahamiyati, hikmati ham shunda. Xulosam shuki, inson ma'naviy barkamol bo'lsa, yuqoridagi ijobiy xislatlarga (Dildor, Asror kabi personajlar misolida) ega bo'lsa, u dunyodagi eng baxtli, eng boy odamdur. Qadr-qimmat iqtisodiy boylik bilan emas, ma'naviy boylik bilan ulug'lanadi, hamma davrda ham bunday insonlar ulug'langan. Kitobdan olgan haqiqatlarim ham shu.

Doniyor QALANDAROV, Baxmal tumanidagi 78-IDUM direktori

Dars — tajriba mahsuli

Dars jarayoniga o'quvchi qaysi jabhada oqsayotganiga qarab munosabatda bo'lishni tavsiya etaman hamkasblarimga. Deylik, o'z fanimdan kelib chiqib aytgan, bola ingliz tilida ravon o'qisa, grammatik mashqlarni yaxshi bajarsa, testlardan natijasi jomiy bo'lsa-yu, yozma savodxonligi yaxshi bo'lmasa, har bir

Xadicha ABDULLAYEVA, Termiz shahridagi 3-maktab o'qituvchisi

Bola tarbiyasida e'tiborning o'ni

"Bolalar jannat bog'ining gul-u rayhonlaridir" deyiladi muborak hadisi shariflarda. Biz ana shu gul-u rayhonlarimizning sarmast etuvchi bo'ylaridan bahramand bo'lishimiz uchun ularni to'g'ri tarbiyalashimiz zarur. Bola tarbiyasi bilan astoydil shug'ullanadigan oilalarning farzandlari o'z imkoniyatlarini dars jarayonida qiyalmasdan ko'rsata oladilar. Sinf rahbarlik faoliyatidagi kuzatuvlarimda shunga amin bo'lganmanki, ko'pchilik otalar telefonida qandaydir o'yinlarni o'ynab vaqtlarini bekorga sarflab o'tirishadi. Holbuki, qaysidir fandan uy ishini bajara olmayotgan farzandga e'tibor berishmaydi. "Dadajon, mana shu misolning qanday yechilishini ko'rsatib yuboring" desa,

Muhabbat RO'ZIBOYEVA, Chilonzor tumanidagi 201-maktab o'qituvchisi

Munislik

Munislik nima? Bunga Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan javob izlaymiz: "Munislik deb har kim o'z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo'lmakni aytillar. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilimkand iboratdur". Demak, ustoz muallim Abdulla Avloniyning ta'kidlashicha, munislik o'z tengini topib, o'ziga munosib kishi bilan do'st tutinmoqlikdir. Bola bog'chaga borgan davridan boshlab o'ziga do'st tanlaydi. O'quvchilik, talabalik, harbiy xizmatdagi davr esa inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Shundan bo'lsa kerak maktabdosh do'stim, talabalik va harbiy xizmatdagi do'stim kabi iboralarini ko'p ishlatamiz. Ayniqsa, musofirchilikdagi do'stlikning qadri baland. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: do'st nima uchun kerak? Ota-ona, opa-singil, aka-ukadan keyin inson uchun eng qadrlil zot — DO'ST.

Ba'zan ota-onangga, jigarlaringga aytolmagan siringini do'st bilan baham ko'rsan. U seni tinglaydi, dardingga malham bo'ladi, ko'nglingni ko'taradi. Arosatda qolganingda to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Yaxshi-yomon kuningda yoningda bo'ladi. Siringni sotmaydi. Buning uchun esa, avvalo, shunday xislatga ega do'stni topmoq lozim. Turmushda ba'zan shod, ba'zida mahzunmiz. Goh omdan qushi boshimizda, gohida tushkunlik. Mana shunday paytlarda bilinadi do'sting qadri. Qilmagan aybingiz uchun hamma sizni barmiq bilan ko'rsatayotganda, ko'z yoshlaringiz ummonida g'arq bo'layotganingizda kerak DO'ST. Ezilib yig'laysiz, bag'ringiz tilinib yig'laysiz, bor hasratingizni to'kib sohasiz. U tinglaydi. Boshi qotib tinglaydi. Va so'z qotadi. O'sha

Muyassar XOLMAMATOVA, Muzrabot tumanidagi 7-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Endi vaqt va asabimizni tejayapmiz

Dunyo mamlakatlari tomonidan karantin davrida ko'rilayotgan chora-tadbirlarning aksariyati raqamli texnologiyani joriy qilish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lmoqda. Paxtakor tumanidagi 9-maktabda dastur bo'yicha yetarli ishlar amalga oshirildi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish, uning imkoniyatlariga yetarli e'tibor qarataish maqsadida maktabimiz o'qituvchilari, o'quvchilari va ota-onalari uchun dars jadvali, uyga vazifalar hamda olgan baholarni ko'rish imkonini beruvchi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan joriy etilgan kundalik.com tizimini ishga tushira boshladik. Ushbu tizimning maktab uchun qulay tomonlarini o'rganib chiqdik. Tizimni hozirgi kunda ishga tushirsak, o'qituvchilar texnologiyadan foydalanishni o'rganish uchun vaqt topiladi, maktab ma'muriyati masofadan turib o'qituvchilar bilan ish olib boradi, o'qituvchilar va o'quvchi o'rtasida mustahkam aloqa tizimi yo'lga qo'yilib, har bir o'quvchi bo'yicha kunlik monitoring shakllantiriladi. Bu tizimning asosiy jihatlardan biri tizimga kirish bepul.

Xo'sh, bu jarayon qanday amalga oshirildi? Men maktabda AKT bo'yicha ma'sul xodim sifatida karantin davrida me'yoriylariga rioya qilgan holda kundalik.com tizimini o'rganib chiqdim va barcha bosqichlarni masofadan turib amalga oshirdim. Albatta, bu yerda o'qituvchilarning ham shijoatini hisobga olish kerak. Internet tizimida ishlashning afzalligi va qulayligini bilib oldik, barchamiz qo'ldan kelganicha harakat qildik. Ushbu loyihaning rivojlanishi bizga yangi imkoniyatlar ehsini ochadi. Bu albatta bizning qanday foydalanishimizga

2020-2021 o'quv yilida respublikadagi barcha maktablar elektron kundalik.com tizimida ish boshlasa, texnologiya bilan ishlash borasida juda ko'p yutuqlarga erishiladi. Natijada xalq o'rtasida o'qituvchilarga bo'lgan e'tibor va hurmat yanada ortadi.

Sanjar XOLMO'MINOV, Paxtakor tumanidagi 9-maktabning informatika fani o'qituvchisi

Oliy pedagogik ta'lim sifati: muammolar

Oliy maktab an'anaviy pedagogikasi davr ilgari surayotgan talablardan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ta'lim texnologiyalarini yangilash, didaktik innovatsiyani joriy etish, professor-o'qituvchilar kasbiy kompetentligining zamon talablari darajasiga ko'tarilishini ta'minlashdagi qator psixologik-pedagogik muammolar OTM tizimini takomillashtirishga jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Xususan, aksariyat o'qituvchilar innovatsion subyekt sifatida sifatli oliy ta'limga tayyor emas. Bu mavjud ziddiyatlarning vujudga kelish omillarini o'rganishni, dekanat va kafedralar faoliyatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. OTMlar innovatsion rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy ziddiyat ta'lim jarayonining asosiy subyektlari – o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ziddiyatdir. **Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida vaziyatga moslashish qobiliyatining past darajada bo'lishi, eskicha tafakkur yuritishga moyillik, yangiliklarni qabul qila bilmaslik, pedagogik faoliyat hamda pedagogik ta'sirning eskirgan usul va shakllarini qo'llash** kabilar ta'lim jarayoni samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Rigidlik (vaziyatlarga moslashish qobiliyatining yetarlicha shakllanmaganligi) innovatsion o'zgarishlarga yashirin qarshilik ko'rsatish illatini vujudga keltiruvchi omil hisoblanadi. Uning tipik ko'rinishlari yillar mobaynida sarg'aygan ma'ruza matnlari, zerikarli amaliy mashg'ulotlar (unda talabalar biri oldindan tayyorlangan referatni o'qib beradi, talabalar jamoasi yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida umuman ishtirok etmaydi), rasmiyatchilik uchun o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar kabilarida namoyon bo'ladi. Rigidlik o'qituvchi kompetensiyasiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada uning foydali ish koeffitsiyenti nihoyatda past bo'ladi.

Oliy ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan muhim jihatlardan yana biri – OTM o'qituvchisi kompetensiyasi darajasining yuqori emasligi, ya'ni uning pedagogik bilimlari va tajribasi yetarli emasligidir. Mutaxassislik fani o'qituvchilarining yetarli metodik tajribaga ega emasligi, mutaxassislik fanlari mazmunini reproduktiv darajada o'zlashtirishga moyilligi bo'lajak mutaxassisni tayyorlashga jiddiy

ta'sir ko'rsatadi.

Vaholanki, OTM o'qituvchisining asosiy vazifasi talabalarining mutaxassislik o'quv fanlarini o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratishdan iborat. Pedagogik bilim darajasi past o'qituvchi talaba tomonidan shuncha ki bilimlarni uzatuvchi shaxs sifatida qabul qilinadi, chunki bunday o'qituvchi yangi materialni bo'r va doskadan foydalanishda, bevosita o'quv qo'llanma orqali bayon etadi. "Bo'r va doska" didaktikasi davri esa OTMlarda o'zining samaradorligini yo'qotganiga ancha bo'ldi. Zamonaviy pedagogik turkum fanlarning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'qituvchining mustaqilligi va erkinligini ta'minlash, ijodkorligini rag'batlantirish, o'qitish jarayonida ta'lim vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat. O'qituvchi nafaqat o'z fanining egasi (ustasi), mazkur fanini o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis, balki talabalar o'quv-ijodiy faoliyati tashkilotchisi ham bo'lishi zarur.

O'qitiladigan fanning mazmuni, maqsadi va vazifalarini har tomonlama keng va chuqur bilish, talabalarda kasbiy ma'uliyat va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish – oliy maktab pedagogining asosiy funksiyasidir.

OTMda dars beruvchi mutaxassislarni tanlab olish va tayyorlashda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

- 1) mutaxassislik fanlarini yaxshi bilish;
- 2) umummadaniy bilim sohaslaridan erkin foydalana bilish;
- 3) jiddiy psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- 4) faoliyatning metodologik apparati va muloqot texnikasini atroficha o'zlashtirish;
- 5) yuksak kreativ va axloqiy salohiyatga ega bo'lish.

O'qitishning yangi samarali shakllari, usullari, didaktik vositalari, metodik usullarini joriy etish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarni tarbiyalash va rivojlantirishning mas'uliyati va ahamiyatini yetarlicha anglashi uchun oliy maktab pedagogida shaxsiy-kasbiy kompetensiyalarni har tomonlama rivojlantirish zarur. Pedagogning ta'lim mazmuni va maqsadlarini anglashi, zamonaviy talablar darajasida didaktik ta'minotni tatbiq etishga erishishi, zamonaviy ilmiy-texnik, jumladan, elektron vositalardan foydalanishi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda katta samara beradi. Fikrimizcha, mutaxassislik fanlarining didaktik va tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan loyiha metodiga tayanilgandagina, pedagogik mahsuldor ta'sir samarasi yuqori bo'ladi. Loyihaviy ishlar mavzularini biz bo'lajak kasb bilan bog'laymiz. Bu esa, o'z navbatida, o'rganiladigan fanning o'rnini belgilash hamda talabalarda uni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otish imkonini beradi. Har bir talaba uchun shaxsiy reja tuziladi, bunda talabning adabiyotlarni tanlash, tahlil qilish, asosiy fikr va g'oyalarni belgilab olishiga yordam ko'rsatiladi. Keyinchalik maqola va tadqiqot ishini yozish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. Har bir talaba bilan uning shaxsiy rejasiga muvofiq haftalik uchrashuvlar olib boriladi. Tadqiqot ishini tashkil etish talabalarining mustaqil ta'lim soatlari hisobidan amalga oshiriladi. Talabalarining turli tanlovlarda ishtirok etishlari ularning ta'lim faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda OTMda o'z fanini mukammal biladigan, raqobatbardosh shaxsni tayyorlash mas'uliyatini to'liq va chuqur his qiladigan, ruhiy muvozanatni saqlay biladigan, faol o'qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ruhiy muvozanatni saqlay oladigan o'qituvchiga xos muhim fazilat – ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan e'tiborli bo'lish va kuzatuvchanlikdir. Tajribali pedagog murakkab didaktik vaziyatlarda diqqat-e'tiboriga tayanadi. Pedagogik

muloqot chog'ida e'tiborlilik – shaxsiga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan didaktik jarayonning muhim sharti hisoblanadi. Kuzatuvchanlik pedagogik ta'sirni oshirishga, qo'llanilayotgan texnologiya hamda bilimlarni yetkazib berish shaklini o'zgartirishga, ta'lim oluvchilarning diqqat-e'tibori pasayganda, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

O'qituvchining yuqori psixologik kompetentligi mahsuldor o'zaro ta'sirni ta'minlashga, ta'lim oluvchiga xos temperament turlarini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Oliy maktab o'qituvchisi pedagogik faoliyati sifatini tahlil qilish va izohlash, mazkur faoliyatni zamonaviy axborot-ta'lim muhitida baholash quyidagi to'rt darajali tasniflash orqali amalga oshiriladi:

Reproduktiv daraja – bunda o'qituvchi o'zi egallagan bilimlarni bayon qilish bilan cheklanadi.

Konseptual daraja – o'qituvchining o'z fanidan tashqari, ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy ma'lumotlarni yaxshi bilishi, keng konseptual tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Mahsuldor daraja – o'qituvchining psixologik-pedagogik bilim va ko'nikmalar hamda keng qamrovli tayyorgarlikka ega bo'lishi bilan izohlanadi. Bu talabalarda samarali motivatsiya va zarur bilimlar tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Integrativ daraja – bunda o'qituvchi pedagogik muloqot texnikasi hamda shaxsiy fazilatlaridan iborat mahsuldor darajaning yuksak cho'qqisiga erishadi. Kasbiy kompetentlikka ega bo'lgani sababli u talaba va tadqiqotchilarda konseptual va ijtimoiy intellekt shakllanishi jarayonida to'laqonli ishtirok etadi. Intellektning aynan shu shakli unga bilimlarni namoyon etish imkonini beradi.

O'qituvchining o'z ish faoliyati darajasi, jamoadagi o'rnini baholashda **shaxsiy-kasbiy saqlay oladigan o'qituvchiga xos muhim fazilat** – ta'lim oluvchi shaxsiga nisbatan e'tiborli bo'lish va kuzatuvchanlikdir. Tajribali pedagog murakkab didaktik vaziyatlarda diqqat-e'tiboriga tayanadi. Pedagogik

Mas'ullik — OTM o'qituvchisi mahoratining integrativ ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Unda shaxsning deyarli

barcha xususiyatlari va fazilatlarini jamlanadi. Mas'ullikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilarni qamrab oladi:

– xizmat va fuqarolik burchini vijdonan, chin ko'ngildan ado etish;

– qonunlar, OTM Nizomi qoidalariga rioya qilishdagi ijro intizomi, xizmatdagi huquq va burchlarini bajarishi;

– o'qituvchilik faoliyati va ilmiy-metodik ishlariga mustaqil yondashish, o'z oldiga real vazifalar qo'yish, ularni bajarish;

– OTMda ta'lim berish tizimini takomillashtirish va o'z kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha tashabbuskorlikka ega bo'lishi;

– jamoa qarorini qabul qilish ko'nikmasining rivojlanganligi, jamoa fikriga qo'shil-magan taqdirda, mazkur qarorni demokratik yo'l bilan o'zgartirishga tayyor ekanligi;

– ish joyida o'z-o'zini nazorat qilish va intizomli bo'lish, o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchan bo'lish.

Professionallik (mohirlik) – OTM o'qituvchisi kompetentligini tavsiflovchi muhim mezonidir. O'z ishining ustasi sifatida u o'qitadigan fanining asoslarini, ta'lim-tarbiya usullari va metodikasini, ta'lim oluvchilar psixologiyasini chuqur bilishi, ta'lim-tarbiya jarayoni tashkilotchisi sifatida talabalar faolligini oshirishi zarur.

O'z fanidan chuqur bilim-ga ega pedagog sifatida talabalarning ilmiy faoliyatini tashkil etadi. U OTMda o'qitish metodikasini takomillashtirish, yangi didaktik texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan yangi ta'lim texnologiyalarini tatbiq etuvchi, tajriba-sinov ishlarini o'tkazuvchi novatoridir. Shunday qilib, OTM o'qituvchisining mahorati (kasbiy kompetentlikka ega ekanligi, mohirligi) uning barcha fazilatlarini (o'z ishining ustasi, olim, novator ekanligini) ish jarayonida ro'yobga chiqaradi.

Kasbiy kompetentlik – OTM o'qituvchisining tayanch tavsifi. Uning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

– o'qitish yo'nalishlarini aniq ko'ra bilish (mutaxassis etaloni, unga erishish vazifalari,

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza yuritishadi.

va yechimlar

Muammo va yechimlar



professogramma, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish ketma-ketligi va boshqalar);

– o'qituvchi sifatida mahorat ko'rsatish (talabalarda kasbiy mahoratni shakllantirishda shaxs va mutaxassis sifatida ibrat bo'lish);

– talaba samarali faoliyati jarayonini asoslash va tashkil etish ("dirijyor", "murabbiy", "maslahatchi" sifatida namoyon bo'lish);

– ta'limning yangi texnologiyalarini bilish va samarali qo'llash. Ushbu o'rinda ta'limning ilg'or texnologiyalariga xos asosiy kategoriyalar tarkibida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

texnologik yondashuv – faoliyat(shu jumladan, pedagogik faoliyat)ni tashkil etishga texnologik (ijtimoiy-muhandislik, loyihalar yaratish) nuqtayi nazaridan yondashish; texnologik madaniyat – shaxsning zamonaviy sharoitda mavjud texnologiyalar(jumladan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va ijtimoiy sohalarda qo'llanilayotgan texnologiyalar)dan imkon qadar xabardor bo'lishi, ularning ishlash tamoyillarini puxta o'zlashtirishi va zarur vaziyatlarda ularni samarali qo'llay olish asosida atrof muhitga mas'uliyat bilan yondashishi darajasi;

pedagogik jarayon – ajdodlarning jamiyatda hayot kechirish va mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy tajribalarini avlodlarga yetkazib berish maqsadida o'qituvchi va talaba o'rtasida tashkil etiladigan o'zaro harakat;

loyihalash – aniq reja, asosiy va maxsus maqsadlar, ular asosida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma, malaka, kompeten-

siyalar, kafolatlangan natijani nazarda tutgan holda muayyan faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat;

loyiha – aniq reja, maqsad, uning natijalanishini kafolatlangan holda pedagogik (ta'limiy yoki tarbiyaviy) faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli kabilari;

– bo'lajak mutaxassis dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini ta'minlash;

– nazoratning barcha turlari orqali faol teskari aloqaga erishish.

Ta'kidlash joizki, kasbiy kompetentlikning barcha belgilari uzluksiz pedagogik diagnostika, o'qitish natijalarining ilmiy tahlili va zarur pedagogik tuzatishlarni o'z ichiga olib, o'qituvchi ta'lim jarayonini ilmiy-tadqiqiy yo'naltirganida namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetentlikni oshirib borishda motivatsiyaning o'rni beqiyosdir. Ya'ni, OTM o'qituvchisi o'z ustida talab darajasida ishlay olishi uchun unda quyidagi ehtiyojlar mavjud bo'lishi lozim:

1. **Kasbiy mahoratni oshirib borishga bo'lgan ehtiyoj.** Bunday ehtiyoj madaniyat, fan, o'z ishining fidoiysi, yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lgan insonning ajralmas xususiyati. OTM o'qituvchisi tez o'zgaruvchan davr sharoitlariga moslasha olishi, o'z faoliyatini fan va madaniyat rivoji bilan uzviy aloqadorlikda tashkil etishi zarur.

2. **O'zaro hamkorlikda ishlagan tayyorlik va unga bo'lgan ehtiyoj** OTM o'qituvchisi mahoratining muhim mezonlaridan biridir. Bunday mezonlarga o'z faoliyatiga tan-

qidiy yondashuv, talabchanlik, o'z ustida ishlay bilish kabi fazilatlar kiradi.

Aytish joizki, oliy ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi-da o'qituvchi ish faoliyati samaradorligining asosiy mezonlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: **ijtimoiy maqsadning mavjudligi; o'qituvchi va talabalar ilmiy hamkorligi tashkil etilganligi; hamkorlik pedagogikasini qo'llay bilishi; ta'lim subyektlari bilan o'zaro muloqot uslubining barqarorligi.** Bunda OTMning har bir o'qituvchisining o'zaro ko'makka tayyor turishi, hamkorlik qilishi, yangi axborotlarni qidirib topishi, hamkasblarining yutuqlarini qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. **Hamkorlik qilishga ehtiyoj va unga tayyorlik** quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

– talabalarni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini hal etishda ilg'or tajribalarni qo'llay olish;

– hamkasblarining shaxsiy fazilatlarini va muloqot qilish psixologiyasini bilish;

– hamkasblarining shaxsiyatiga tegmasdan, ularning faoliyatini tanqidiy baholay olish;

– bahs-munozara olib borish, umumiy ishda hamfikir bo'la olish;

– ish manfaati yuzasidan ko'rsatilgan tashabbus va takliflarni tushunish, qabul qilish va qo'llay bilish;

– faoliyat bo'yicha tarafdorlarni qidirib topish, samarali ish olib borish kabilari.

Xulosa qilib aytganda, OTM o'qituvchisi kasbiy mahoratini oshirishda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi, mazkur qobiliyatini rivojlantirishga sa'y-harakat qilmog'i zarur. Kasbiy mahoratni oshirishga qaratilgan shart-sharoitlar har bir oliy ta'lim muassasasida mavjud. Shu bilan birga, ularni amalga oshirish professor-o'qituvchining qay darajada o'z ishining ustasi ekaniga bog'liq.

O'tkir TOLIPOV,
Nizomiy nomidagi
TDPU professori,
pedagogika fanlari doktori

Ehtirom



Mustaqil ish bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'z ustida ishlashi, ziyrak va hozirjavob bo'lishiga yordam beradi. Buning uchun o'quvchini ruhan tayyorlash, ko'zlangan ishni bajarish uning qo'ldan kela olishiga ishonirish lozim. Bunda bolani nazorat qiluvchiga ham mas'uliyat yuklanadi. U puxta o'ylangan, maqsadli va davomiy mashqlarni tavsiya etishi kerak.

Mustaqil o'qishga qanday o'rgatiladi?

O'quvchining imkoniyati, yosh xususiyati, qiziqishlarini e'tiborga olish zarur. O'g'il-qizlarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'liq "eslab qolib" bajarishdir. Bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar mustaqil ishlarni sifatli bajarishi oson bo'lmaydi, albatta. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin bo'lsa-da, so'z boyligi yetarli emas. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza yuritishadi. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: "Nega shunday bo'ldi?" Seningcha, qanday bo'lishi kerak edi?" kabi savollar berib, fikrini ma'qullab, "Yana o'ylasang, topasan", "Judayam yaxshi", "Juda soz!" kabi rag'batlantiruvchi iboralarni ishlatish foydalidir. Masalan, "O'roq va Kombayn" mavzusi yuzasidan: "O'roq nega afsuslanadi?", "Kombayn unga nima dedi?" kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga e'tibor qaratiladi. Shunda har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholash ham o'rgatiladi.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan bola mamnun bo'lsa, qiziqishlari ortib, yangi-yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi. Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Bola avval o'ylaydi, fikrini jamlaydi, so'ng uni yozishga kirishadi. O'z fikrini bayon qilish, qo'yilgan biror savol yoki masala yuzasidan mushohada yuritishga urinadi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o'zicha gapiradi(pedagogikada bu aktiv faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki tahlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalashtirdi.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

– beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin;

– ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

– ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda o'zlarida dadillik sezsin;

– mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin(hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak;

– topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish lozim;

– topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi(parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

– topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin.

Zilola MAHMUDOVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi 11-IDUM o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi

O'qituvchi tavsiyasi

Imkonni boy bermayin, desangiz...

Biz, odamlar ko'p chalg'iyimiz. Ishda, uyda, o'zgaralar bilan munosabat borasida va umuman hayotda... Xullas, chalg'ish tufayli ko'p vaqt, imkon boy beriladi. Aslida, bunga yo'l qo'ymaslik, ya'ni bizga tortiq etilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish o'z qo'limizda!

Masalan, kun davomida aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kasb sohiblarini olaylik. Ular ko'p maqsadlar, reja-yu vazifalar sari intilishadi. Ammo hamma ham ko'zlangan yumushlarini vaqtda ado etishga ulgura olmasligi bor gap. Xo'sh, bunga nima sabab? Shubhasiz, chalg'ish, diqqatni jamlay olmaslik, fikrlar tarqoqligi tufayli ish ortga suriladi.

Olimlarning fikricha, biz o'zimizga qiziq bo'lmagan narsalarga diqqatni jamlay olmay qiyinalar ekanmiz. Qizig'i, hayotimizning asosiy qismi sanalgan ish va o'qish hamisha ham biz uchun qiziq bo'lavermaydi. Shu bois biror muhim vazifani bajarayotganda miya o'z-o'zidan chalg'iydi, ishlashni "istamaydi". Buning oldini olish uchun o'zimizni qattiq nazorat qilishimiz kerak. Ana shunda ko'zlangan vazifalarni kechiktirmay bajarishning ud-dasidan chiqqa olamiz.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, kishi to'liq diqqatini jamlashi uchun unga 10-15 daqiqa zarur. Fikrni jamlagach, miya faol ishlay boshlaydi va bu jarayon 30-40 daqiqa davom etadi. So'ng esa charchoq yuzaga keladi.

Intellektual mashg'ulot bilan band bo'lganimiz payt miya har doimgidan ko'ra ko'proq chalg'ishga moyil bo'ladi. Shu bois ish joyining to'g'ri tashkil qili-

nishi, stol ustida tartib bo'lishi, tinchlik muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, turli noxush hidlar ham miyani ishdan chalg'itadi. Eng muhimi esa, aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan kishi uyqusizlik, stress, asabiylashish, qon bosimining oshishi kabi salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi omillardan ehtiyot bo'lishi kerak. Mabodo, bu holat maktab yoshidagi bolalarda yuz berayotgan bo'lsa, uni aynan nimalar chalg'itayotganiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, televizor, kompyuter o'yinlari, shovqin, uydagi janjal kabilar bola intellektual mashg'ulot bilan shug'ullanayotganda juda ham xalal beradi.

Biror yumushga uzoq vaqt davomida diqqatni jalb etish o'zimizni nechog'li nazorat qila olishimizga bog'liq. Shu bois quyidagi maslahatlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

* Ish joyini tartibga keltirish lozim. Chunki tartib, orastalik miyaning faol ishlashiga turki bo'luvchi omil.

* Ish jarayonida organizmning fiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olish kerak. Ya'ni har bir ish soati so'ngida 10 daqiqalik tanaffus qilib turish zarur.

* Aqliy salohiyat talab qiladigan biror yumushga kirishishdan avval o'n-o'n besh daqiqa davomida saqich chaynash


diqqatni jamlab olishga yordam berar ekan. Chunki saqich chaynayotganda yuz mushaklari ishg'a tushib, miyada qon aylanishi yaxshilanadi, uning xush bo'yi esa kayfiyatga ijobiy ta'sir etadi.

* Mexanik soat millariga ikki daqiqa davomida tikilib o'tirish diqqatni jamlashga katta yordam berar ekan. Buning uchun butun e'tiborni soat millari harakatiga qaratish va boshqa hech nima haqida o'ylamaslik kerak bo'ladi.

Darhaqiqat, jahon ruhshunoslari amaliyotida diqqatni jamlash uchun bir necha maxsus mashqlar mavjud. Masalan, quyidagi mashqni olaylik.

O'rindiqa tik o'tirib olgach, boshni baland ko'tarib, yelka orqaga tashlanadi. Gorizontol yo'nalish bo'yicha o'ng qo'lni yelka bilan qo'shib old tomonga cho'ziladi. So'ng boshni quyi tushirib, oldinga uzatilgan qo'lga diqqat bilan razm solinadi. Siz barmoq uchiga qarab turgan paytingizda qo'lingiz qimirlamay turibdimi-yo'qmi, shuni bilishga intilasiz va diqqatni jamlaysiz. Xuddi shu holatda bir daqiqa o'tirish darkor. Keyin esa chap qo'l bilan ham xuddi shunday qilinadi. Keyinchalik bu mashqni besh daqiqagacha bajarish mumkin.

Yana bir mashq psixologiyada keng qo'llanadi. Uni bajarish uchun shisha idishni suv bilan to'ldirib, o'ng qo'l barmog'ining uchi bilan ushlaysiz va qo'lni old tomonga cho'zasiz. Keyin esa idishga diqqat bilan qaraysiz, idish qimirlab,



suv to'kilmasligi uchun qanchalik xayolni jamlasangiz, shuncha yaxshi. Bu mashqni ham bosqichma-bosqich bir daqiqadan besh daqiqagacha olib borish mumkin.

To'g'ri, bu mashqlar juda ham oddiy, jo'n tuyulishi mumkin. Ammo ishonib, ularning ishlaringiz unumli kechishi va salomatligingizga ta'siri katta. Avvaliga ong har kuni bunday mashqni bajarishga qarshilik ko'rsatadi, erinadi. Agar siz sabr bilan mashqni to'liq bajarishga intilsangiz, xotira mustahkamlanib boradi va fikr tarqoqligi, xayol chalg'ishidan xalos bo'lasiz.

Nargiza NODIROVA,
Parkent tumanidagi
44-maktab o'qituvchisi

Mulohaza

Bilim baho uchun emas, hayotda foydalanish uchun bo'lsin

Har tong uyg'onib, ijtimoiy tarmoqlarga ko'z yugurtiraman va qandaydir repetitorlik kursining reklamasiga ko'z tushadi. "Bolangizni 3 oyda vunderkindga aylantirib beramiz", "Institutga kirishini kafolatlaymiz", "IELTSni oson o'rganing", "Mental arifmetika", "Pochemuchka (Bilarjon)" singari turfa xil onlayn darslar soni ko'paydi. Ushbu o'quv kurslari orasida til o'rgatish bilan bog'liq xususiy o'quv markazlari ko'p. To'g'ri-da, "Til bilgan yo'l-da qolmas" deganlaridek, masalan, ingliz tilini yaxshilab o'rganib olsangiz, sayyoramizdagi 1 milliard 700 million inson bilan bemalol muloqotga kirishish mumkin bo'ladi.

Milliardlab mablag' sarflab, lingafon, kompyuter, video-proyektor kabi texnik jihozlar bilan ta'minlangan sinfonalarda 1-sinfidan to maktabni bitirguncha chet tilidan saboq olgan bolaning ota-onasi yana har oyda falon so'm sarflab farzandini qo'shimcha shug'ullantirmoqda. Sifat darajasi bir-biridan farqlanadigan o'quv kursi va markazlari nega ko'paygan? Maktab o'quvchilari chet tilini mukammal bilmasligining sababi nimada?

Birgina maqolada bu masalaning ildiziga chuqur kirib borishning imkoni yo'q. Ta'lim oluvchilar orasida ishtioy pasaygan, aksari chet tillarni bilish hayotda katta foyda keltirishini anglab yetgani uchun emas, faqat baho olish va oliy o'quv

o'quvchi uchun ona tilidan boshqa yana bir tilni o'rganishi "testlarda qo'shimcha 1,1 ballni"gina emas, balki kelajakda, hayotda, karyerada, bilim olishda naqadar katta foyda berishini yoshlikdanoq anglab yetishchalik kuchli motivatsiya beruvchi jihat bo'lmasa kerak.

Ha, o'zing uchun mutlaqo begona bo'lgan bir tilni o'rganish qiyin ish, uni o'rgatish esa bundan-da mushkul. Agar ta'limni bilim, malaka va ko'nikmalarni berish va olish, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi deya ta'riflasak, xorijiy tillar ta'limini birmuncha unumlashtirgan holda, tugal fikrni jumla yoki gap shaklida ifodalay olish va tushunish ko'nikmasini shakllantirish uchun kerakli bilim berish jarayoni deiyish mumkin.

Ma'lumki, 6-7 yoshdan boshlab bola xarakteridagi yetakchi faoliyat yo'nalishi almashadi. Ya'ni o'yin faoliyati o'rnini bilish faoliyati egallashga kirishadi. Aynan shu davrda til o'rgatishni boshlash juda katta samara berishi o'z isbotini topgan. Biroq bunda pedagoglar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan juda muhim bir

jihat bor. Ta'lim jarayonining o'yinlar shaklida o'tishi, yangi tengdosh do'stlar va o'qituvchi bilan tinimsiz muloqot bu yoshdagi bolaning maktab hayotida tabiiy holatdir. O'yin faoliyatiga tayangan holda bilim berish chet tilini o'rganishga, oddiy jummalarni bo'lsa-da o'zga tilda aytishga tabiiy rag'batni vujudga keltiradi. Chet tili ta'limiga o'yin shaklini tatbiq qilish o'quv faoliyatiga xalaqit bermaydi, aksincha uni to'ldiradi va jonlantiradi.

"Ingliz tili o'qituvchimizga ko'rgazmali qurollar tayyorlash uchun detal va materiallar zarur bo'lardi, — deydi bir hamkasbim. — Bir darsda o'qituvchimiz bizga "Kim ko'proq karton qog'oz yig'ib kelsa, a'lo baho oladi" dedi. Men esa baho olishning ham yo'li bor ekan-ku, deya onam savdoga olib chiqadigan oyoq kiyimlarning ko'pini karton qutisidan bo'shatib chiqdim. Tengdoshlarim ichida eng ko'p qog'oz olib boradigan o'quvchi o'zim ekanimga ishonib, ich-ichimdan suyunib ketdim. Va kutganidek kundalik daftaram "besh"larga to'ldi. Ammo haligacha inglizcha so'zlarni to'g'ri yozish va qo'llashni bil-

masligim ko'p pand beradi. Endi bilsam, baho uchungina biroz intilganim sabab haqiqiy bilim ololmadim. Hozir o'z kasbim bo'yicha davlat tashkilotlaridan bironi ishlayman, har qadamda chet tilini o'rganishga ehtiyoj tug'iladi. Vaqtni ortga qaytarib bo'lsaydi..."

Ilg'or ta'lim tizimi shakllangan davlatlarda xorijiy tillarni o'qitishda har bir o'quvchi shaxsiga alohida yondashuvning bo'lishi oltin qoidaga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu jihat uy vazifasi berishdan tortib, o'rganilayotgan chet tillarida dialoglar tuzishgacha, bir so'z bilan aytganda, har bir holatda inobatga olinadi. Sinfidan tashqari ishlarga kuchli e'tibor esa bunday mashg'ulotlarni o'ta qiziqarli shaklga keltirgan. Masalan, "Chet tillarni o'rganish uchun eng yaxshi mamlakat" reytingida bir necha yil yetakchilik qilgan Chexiyada aynan o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga keng jalb qilish yordamida tilni "baho uchun emas, hayot uchun o'rganish" tamoyilining qaror topishiga erishilgan.

Dilbar TURONOVA,
Kattaqo'rg'on tumanidagi
79-maktab o'qituvchisi

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA

TANLOV E'LON QILADI:

I. "Mahobatli rangtasvir" kafedrası:

- Kafedra mudiri.
- O'qituvchi.

II. "Dastgohli rangtasvir" kafedrası:

- Professor.
- O'qituvchi.

III. "Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi" kafedrası:

- Professor.
- Katta o'qituvchi.

IV. "Badiiy kulol va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash" kafedrası:

- Professor.

V. "Teatr bezagi rangtasviri" kafedrası:

- Dotsent.

VI. "Miniatyura va kitob grafikasi" kafedrası:

- Professor.
- Dotsent.

VII. "Amaliy grafika" kafedrası:



ЎЗБЕКИСТОН БАДИИЙ АКАДЕМИЯСИ
КАМОЛИДДИН БЕХЗОД НОМИДАГИ
МИЛЛИЙ РАССОМЛИК ВА ДИЗАЙН
ИНСТИТУТИ

- Dotsent.

VIII. "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim" kafedrası:

- Dotsent.

IX. "Tillar va adabiyot" kafedrası:

- Katta o'qituvchi.

X. "Chizmatasvir" kafedrası:

- O'qituvchi.

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- institut rektori nomiga ariza;
- xodimlar shaxsiy varaqasi;
- oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxasi;
- mehnat daftarchasi nusxasi;
- ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
- ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;
- kataloglar.

HUJJATLAR E'LON CHIQQAN KUNDAN BOSHLAB BIR OY MUDDAT ICHIDA INSTITUT KENGASHI KOTIBI TOMONIDAN QABUL QILINADI.

**Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefonlar:
(71) 255-18-33, 255-98-39.**

Bo'ronov Mizrob Mavlonovichning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda ma'naviy tiklanish va yuksalishning ijtimoiy-falsafiy masalalari" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 15-sentabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Panoyev Nodir Shavkatovichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Kremniyorganik birikmalar asosida termobarqaror (oligo)polimerlarning olinishi, xossalari va texnologiyasi" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.12.2019.T.78.01. raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 12-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.

Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Allamberganov Tanjarbay Dao'letmuratovichning 03.00.09 — Umumiy genetika ixtisosligi bo'yicha "G.hirsutum L. turiga mansub g'o'za navlarining F1 va F2 duragaylarida "tola sifati" belgisining irsiylanishi va o'zgaruvchanligi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111226, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz ko'chasi.

Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr_anruz@mail.ru

Tuxtabayev Anvar Alisherovichning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Postmiokarditik kardioskleroz fonida platsenta disfunktsiyasi bo'lgan ayollarda homiladorlik va tug'ruqni olib borishni takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-sentabr kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: mail@tashpmi.uz

Umirov Nurbek Norbo'tayevichning 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida neft yoqilg'ilarining fizik-kimyoviy xossalari rostlovchi modifikatorlar olish texnologiyasi va amaliyotda qo'llash" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.12.2019.T.78.01. raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 11-sentabr kuni soat 09:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy.

Tel/faks: (76) 221-74-55, 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

A'zamova Maloxat Nadjimovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01. raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 12-sentabr kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 64-uy.

Tel/faks: (71) 150-01-27; e-mail: mtm-malaka.oshirish@exat.uz

Toshkent molliya va iqtisodiyot kolleji faoliyati 2020-yil 10-sentabr sanasidan TUGATILADI.

Da'vo va arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy ichida Toshkent shahri Sirg'ali tumani, 3-mavze, 49-uyda qabul qilinadi.
Murojaat uchun tel: (71) 257-26-98.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, "Algoritm" mavzeysi, 31-dahadagi 295-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan 2004-yilda Nuriddinova Rashidaxon Arip-xanovna nomiga berilgan 9991406 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumandagi 172-umumiy o'rta ta'lim maktabi tomonidan 2014-yilda Metlin Ilya Alekseyevich nomiga berilgan U № 6757319 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi sababli

BEKOR QILINADI.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Ilmiy bo'lim boshlig'i Nizomiddin Aliyevga onasi
SHAFOAT ayaning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Chirchiq davlat pedagogika instituti jamoasi o'quv ishlari bo'yicha prorektor Ilhom Haydarovga otasi
QUDRAT otaning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Abdulla Qahhorni qoyil qoldirgan...

Ozod Sharafiddinov o'zi bilan birga ishlagan domlaldan uch kishi: Umarali Normatov, Alo Ashrapov va Sanjar Sodiqov to'g'risida jajji portret yozgan va Sanjar Sodiqov to'g'risidagi maqola-portretini "Har bir inson – bir mo'jiza" deb nomlagan. Unda Sanjar Sodiq chindan-da g'aroyib inson ekanini muhtasar tavsiflab, uning tarjimai holi bilan tanishtirgach: "Nazarimda, Sanjar, hatto, to'g'ri yo'lda ham yo'lini eplab yura olmaydigan ko'zi ochiqdagi qaratilgan o'rnak bo'lsa kerak", deb ta'kidlagan edi.

Haqiqatan ham, Sanjar Sodiq bilan tanishib, suhbatlashgan, uning faoliyatini yaqindan kuzatgan kishi u ko'pchilik uchun har jihatdan ibrat qilib qo'yilganiga iymon keltirardi. Chunki uning fe'l-atvorida kishini havas bilan qarashga, shukr qilishga majbur qiladigan talaygina sifat, xususiyatlar mujassam edi. Avvalo, Sanjar Sodiqning fenomenal xotirasi, hodisalarni qiyoslab, tahlil qilish qurbi quvvatining kuchliligi, dona-dona qilib so'zlashi, fikrini yozuv mashinkasi va kompyuterda ham o'zbek, ham rus tilida tiniq, tushunarli uslubda yoza olishi, shaxmat o'yinida raqiblarini bir zumda mot qilishi, radio apparatlarini tuzatishi, hech shubhasiz, har qanday odamning havasini keltirar edi. Sanjar Sodiqning kishi havasini qo'zg'atadigan yana talaygina fazilatlar bor edi.

U dars mashg'ulotlaridagi kabi o'zbek adabiyotiga doir o'quv qo'llanmalarida ham, mustaqillik davri adabiyoti muammolariga bag'ishlangan maqolalarida ham savolni tushunarli, aniq qilib qo'yardi hamda masalaga doir mulohazalarini osongina tushuniladigan tarzda bo'g'ilmagan, zo'riqmasdan bayon qilardi. Shuning uchun Sanjar Sodiqning 1976-yilda nashr qilingan o'quv qo'llanmasi bu davr o'zbek adabiyoti to'g'risidagi eng yaxshi manba sifatida qadrlanadi. Chunki o'zbek sovet adabiyoti tarixi kuni bo'yicha ushbu metodik qo'llanmada XX asr adabiyoti namoyandalari haqida hayoti va ijodi o'sha davr mukarasi mezonlariga muvofiq sodda va aniq yoritilgan. Hamza, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Uyg'un, Komil Yashin, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Asqad Muxtor asarlarining eng muhim xususiyatlari aniq, ravshan ko'rsatib berilgan. O'zbek sovet adabiyotining shakllanish davri (1917–1932-yillar) qanday kechgan, sotsialistik realizmning ilk bosqichi (1932–1956-yillar) da u qanday qiyofa kasb etgani, Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi davrda qanday asarlar yaratilgani, ularda hayot voqeeligi qanaqa yoritilib, inson obzagi qanday g'aydalantirilgani to'g'risida barcha osongina tushunadigan tarzda mulohaza yuritilgan.

Sanjar Sodiq katta-kichik 33 kitob yozdi, 150 dan ortiq maqola e'lon qildi. Uning zamonaviy o'zbek adabiyotiga bag'ishlangan ushbu kitoblari, maqolalari ravon, silliq uslubda bitilgan bilan diqqatni tortadi. O'quv-metodik qo'llanmalarida ham, adabiy-tanqidiy maqolalarida ham kirish qismi cho'zmasdan, mavzuga tegishli muammoni aniq qo'yib, bu xususdagi mulohazalarini bayon qilishga kirishardi. Uning e'tibor qaratilgan masalaga tegishli fikrlari bir me'yorda silliq oqib, zanjir halqalari singari bir tekisda

ulanib, bir-birini to'ldirib, quvvatlantirardi.

Sanjar Sodiq muddao, maqsadiga erishish uchun muttasil mushohada qilardi, o'ylanardi, g'ov-to'siqlardan oshib o'tish uchun harakat qilishdan bir zum ham to'xtamasdi. Uning ana shu so'bitligi, tirishqoqligi, to'siqlar oldida to'xtab qolmasligi ko'pchilikni qoyil qoldirardi, ajablantirardi.

U tarjimashunoslikda ham juda katta ish qildi. Jumladan, Boris Pasternakning "Doktor Jivago", Ivan Buninning "Arseneyev hayoti", Onore de Balzakning "Sezar Birotoning parvozi va inqirozi tarixi", "Tannoqlar yaltiroqligi va qashshoqligi" romanlarini ona tilimizga mahorat bilan o'girdi.

Sanjar Sodiq zamonaviy adabiyotdagi o'zgarishlardan tezkorlik bilan xabardor bo'lib borardi va bundan maroqlanardi. U Ozod Sharafiddinovning qarashlarini o'ziga andoza qilib olgandi. Asarlarning matnini, u kichkina she'rmi, bir necha yuz sahifali romanmi, eshita, bas, darhol yodlab olardi. Har qanday matni bir marta eshita, unga shu kifoya qilardi. G'aroyib quvvay hofizasi bunga imkon berardi. Shu bois ustoz Ozod Sharafiddinov Xudo har bir insonni betakror mo'jiza qilib yaratganini ta'kidlar ekan: "U bir eshitgan narsasini sira unutmaydi, "O'n yil avval falon kuni nima bo'lgandi, falon nima degandi yoki falon romaning falon joyida nima bo'ladi", deb so'rasangiz, savol og'zingizdan chiqib ulgurmay, javobini qalshirib tashlaydi. Aftidan Sanjar "xotira" deb atalgan omborining qaysi tokhasida nima turishini yaxshi bilsa kerak", deb yozadi.

Muhimi shundaki, Sanjar Sodiq o'zining fenomenal xotirasida saqlagan dalillarni boshqalarga eslatishning o'zi bilan cheklanmasdan, ularni bir-biriga qiyoslab, hodisalar o'rtasidagi musharak va farqli jihatlarga e'tibor qaratardi, ko'pchilik payqamagan eng nozik nuqtalarni topib, hammani hang-u mang qilib qo'yardi. Ozod Sharafiddinov maqolasida Sanjar Sodiqov o'zining ana shu qobiliyatini tufayli Abdulla Qahhorni ham ajablantirganini qayd etgan: "Sanjar Sodiq qandaydir favqulodda iqtidorga ega ekaniga, ko'p narsalarni sog'lardan yaxshiroq ko'ngil ko'zi bilan ko'ra olishiga e'tiborimni birinchi marta Abdulla Qahhor jalb qilgan edi. O'shanda Sanjar hali talabamidi yoki o'qishni tugatganmi – hozir aniq esimda yo'q. Klurlardan birida "Totubudan tovush" komediyasini jamoa bo'lib tomosha qildik. Keyin asar muallifi ishtirokida muhokama qildik. Ko'pchilik qatori Sanjar ham so'z so'radi. U asar haqida ancha jo'yali fikrlar aytdi va rollarni ijro etishda ayrim artistlarning mahoratini misollar bilan ta'kidladi. Jumladan, Suxurov rolini ijro etgan Sa'di-

xon Tabibullayev ijrosi to'g'risida juda chiroyli gap aytdi. Ma'lumki, Suxurov – poraxo'r, harom ishlar bilan katta boylik orttirgan nopok inson. Tekshir-tekshirlar boshlanganidan keyin u dang'illama uchastkasini xotining ukasi Obidjonning nomiga o'tkazib qo'yib, jon saqlamoqchi. Obidjon – oddiy mehnatkash yigit, dabbalarga o'rganmagan, halol. Suxurov uning sha'niga kichikroq ziyofat uyushtirib, unda stolning to'rida turib olib qadah so'zini aytdi. Gaplari havoyi, balandparvoz, osmon-u falakda. Obidjon "pastroq tushing" (ya'ni "odmiroq gapiravering odamga o'xshab") degan ma'noda tanbeh berdi. "Shunda, – dedi Sanjar muhokamada, – aktyor stolning to'ridan chiqib, yon tomondagi, ya'ni pastroqdagi stullardan biriga bo'lib, to'rt ko'z bo'lib, spektaklni kuzatib o'tirib, aktyorning bu harakatini payqamabman, Sanjar esa sezibdi. Qoyil-ey!". Bu e'tirofdan Abdulla Qahhor o'shanda spektaklni to'rt ko'z bo'lib, ya'ni ko'zoynak taqib tomosha qilgani, lekin ko'zi ojiz kishi ko'rgan holatni ko'rmagani, to'g'rirog'i, aktyorning o'sha paytdagi harakatiga uchma e'tibor qilmagani va Sanjar Sodiqning bunday sinchkovligi, topqirligidan hayratga tushgani aynonlashadi.

Sanjar Sodiqning mulohazalarini mamlakatimizdagi adabiyotshunoslar ham, xorijdagi hamkasabalar ham e'tiborsiz qoldirishmadi. Chunki u fikrini, qarashlarini: "Tasvirning boshdan-oyoq obrazli ko'rsatish uslubiga asoslanganligi, sharoit va insonning o'zaro muvofiqlikda g'aydalantirilganligi, qahroman ruhiy dunyosining voqealar oqimiga mos ravishda ochilganligi, o'yilgan g'oyaning faqat san'at vositalari orqali ifodalangan hamda zamonaviy tilning mazkur maqsadga mahorat bilan bo'ysundirilganligi – bularning hammasi "Uloqda" hikoyasi chinakam realistik metodda yozilganligini ko'rsatadi. Demak, "Uloqda" hikoyasi bilan o'zbek adabiyoti uchun yangi bo'lgan ijodiy metod qayilgan" (Sodiq S. Yangi o'zbek adabiyoti tarixi. Oliy o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlari uchun darslik. – Toshkent, 2006. – 292 b. – 19-bet) tarzida aniq, tushunarli ifodalaydi, mulohazalarini mavhum qoldirmasdan dalillar asosida isbotlaydi. Uning o'quv-metodik qo'llanmalari, adabiy-tanqidiy maqolalari matnida ma'nosi mavhum, tushunarsiz gaplar ko'rinmasdi. Uning adabiy jarayonga qarashlarida, shoir, adiblar ijodiga baho berishida, adabiy hodisalarni tahlil qilishida metodist muallimga xos yondashuv uslublik qilardi. Adabiyot tarixidagi o'zgarishlarni, undagi hozirgi jarayonni aniq, ravshan, tushunarli tarzda



sharhlashga, yangilanishlarning sabablarini izohlashga harakat qilardi. Bunda u ko'proq Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatovning qarashlaridan kelib chiqardi.

Sanjar Sodiqning o'quv-metodik qo'llanmalari, shoir, adib, adabiyotshunoslar to'g'risidagi portretlari, zamonaviy adabiy jarayon to'g'risidagi "Ijodning o'ttiz lahza-si", "Yangicha talqin mevalari" kabi adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamidagi mulohazalarning mantiqan bir-biriga bog'lanishi, e'tirozlarning hukm tarzida ifoda qilinishi, bir so'z bilan aytganda, fikrlarning har jihatdan puxta, pishiq, e'tirozga hech o'rin qoldirmasligi yuqoridagi kuzatish ayni haqiqat ekaniga, ya'ni ayni toifadagi kishilar boshqalarga qaraganda bo'lakcha fe'l-atvorga ega bo'lishiga, ular hamisha puxta, pishiq ish tutishiga, Xudo odamlarining suratida ularning siyratidagi xususiyatlar belgilarini muhlab qo'yishiga aniq misol bo'la oladi. Odamlar ham raqamlar, harflar kabi belgilar bag'riga olam-olam ma'noni joylab qo'yishadi. Bu ma'nolarni har kim o'z saviyasi, o'z darajasida tushunadi.

Uning "Ko'hna dunyo", "Adolat manzili", "Chayon yili", "Bozor", "Qon hidi", "Tilim saltanati", "Yangi chiqqan oy", "Kapalaklar o'yini", "Mavhumot", "Fano dashtidagi qush", "Muvozanat", "Isyon va itoat", "Ulus", "Ishq ahli", "Cho'lpon", "Maqsud Shayxzoda" romanlari to'g'risidagi taqrizlari ular haqidagi eng salmoqli tadqiqotlar sirasiga kiradi. Ushbu katta taqrizlar tanqidiy ruhining kuchliligi, mulohazalar mantiqiy asoslangani, e'tirozlar o'rinli ekanligi bilan mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligi yutuqlari qatorida turadi. Sanjar Sodiq boshqa asarlar to'g'risidagi taqrizlarida ham, "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darsligi yoki turk adabiyoti tarixi, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, chet el adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi tarixi bo'yicha tuzilgan ma'ruzalar matni, fan dasturi to'g'risidagi keskin e'tirozlarida ham, Abdulla Qahhor hikoyalari o'rinsiz tanqid qiluvchilarga munosabat bildirganida ham zukko mutaxassis sifatida ish tutadi, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan tarzda puxta, pishiq mulohaza yuritardi. Shuning uchun shu paytgacha hech kim "Sanjar Sodiq noto'g'ri tanqid qilgan", deb maydon-ga chiqolmadi. Chunki u maqto'v

so'zlarini ham, tanqidiy fikrlarini ham atroficha asoslab, puxta, pishiq uslubda ifoda etardi. Sanjar Sodiq ijodkorlar erishgan yutuqlarni hech qachon inkor etmasdi. Shuning barobarida mualliflar yo'l qo'yg'an xatolar, asarlardagi kamchiliklarini ayamasdan ochib, tanqidiy fikrlariga alohida bosim berardi. Masalan, "Ko'hna dunyo" o'zbek adabiyotida yaratilgan birinchi tarixiy-polifonik roman hisoblanadi. O'zining teran falsafiy mazmuni va original shakli bilan "Ko'hna dunyo" romani adabiyotimizning zamonaviyligini, gumanistik mohiyatini chuqurlashtirdi, janrlar doirasini kengaytirdi, uslublar palitrasini rang-baranglashtirdi hamda xalqimiz ma'naviy olamini boyituvchi asar bo'lib qoldi (Sodiq S. Ijodning o'ttiz lahza-si. – Toshkent: "Sharq", 2005. – 28-bet.) deb ta'kidlagani holda, "Ko'hna dunyo" romanida ham o'rinsiz takrorlar, aynan bir xil yoki o'xshash so'z va iboralarning me'yordan ortiq qaytarilishi hollari anchagina bo'lib, ular qahramonlar nutqining mukammal individuallashtirilishiga xalaqit bergan" (O'sha manba. 25-bet) deb qayd etgan.

Sanjar Sodiq ota-onasining kasbini davom ettirdi. Ota-onasi maktabda o'zbek tili va adabiyotidan dars berib, katta obro'ga erishgan bo'lsa, u universitetlarda talabalarga xuddi shu soha bo'yicha saboq ulashib keldi. Otasi Miridi Sodiqov "Respublikada xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni bilan taqdirlangan bo'lsa, o'g'li Sanjar Sodiqqa 2004-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi" unvoni berildi. U yarim asrdan ko'proq vaqt universitetda o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent (1982-yildan), professor (1998-yildan) lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Adabiyotshunos sifatidagi izlanishlarini pedagogik faoliyati bilan uzviy bog'lagan holda olib bordi. Adabiyotshunos, tanqidiy sifatida qancha zukko bo'lsa, pedagog sifatida shunchalik omilkor edi. U talabalarni ovozdin tanib, gap-so'zini eshitib, ularning ijtimoiy ahvoli, fe'l-atvorini aniq bilib olardi va kurs, guruhdagi yetakchilarni darhol ajratib, ularga suyangan holda, talabalarni osongina boshqarishga erishardi. Talabalar uning ma'ruzalarini berilib tinglashardi, amaliy va seminar mashg'ulotlarida zerikib qolishmasdi. Chunki Sanjar Sodiq – sohasining bilimdoni edi. U har bir mashg'ulotda talabalarga biron-bir yangilikni yetkazardi, qiziqishi, o'zlashtirishi, davomati, odob-axloq turlicha talabalarga qat'iqo'l bo'lishing ham, ularni erkatlashing ham uddasidan bemalol chiqardi.

Umuman, talabaligida Abdulla Qahhorni qoyil qoldirgan, keyinchalik uning ijodi to'g'risida doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi, filologiya fanlari doktori, professor Sanjar Sodiqning jo'shqin faoliyati bu hayot mashaqqatlarga to'laligi, u chinakam kurash maydoni ekanini bamosoli oyna kabi ko'rsatdi.

Abdulla ULUG'OV,
adabiyotshunos

Taekvondo yo'nalishida tahsil olayotgan har bir talaba uning shogirdiga aylanishni istaydi.

1955-yili tashkil topgan o'quv yurtimiz 2018-yildan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti maqomi bilan faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Shu kunga qadar bu universitet yurtimizni jahonga tanitishga xizmat qilgan juda ko'plab mard, jasur sportchi yigit-qizlarni yetishtirib berdi. 12 nafar professor, 6 nafar fan doktori, 48 nafar fan nomzodi va dotsent, shuningdek, xalqaro sport ustalari va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustalari faoliyat yuritib kelayotgan mazkur dargohda chet el talim muassasalari, sportchilari bilan ham hamkorlikda ish olib boriladi.

Koreyalik murabbiy

o'zbek talabalariga jahon musobaqalari eshigini ochmoqda



Xususan, xorijning yetuk, tajribali mutaxassislari o'z yo'nalishlari bo'yicha sport sir-asrorlarini biz talabalarga o'rgatib kelishmoqda. Shunday ustozlarimizdan biri taekvondo mutaxassisligi professori Baek Mun-Jong.

Baek Mun-Jong 1970-yil 24-mayda Koreyada tavallud topgan. Dankuk universitetini tamomlagan. Oilasi 4 kishidan iborat, 2 farzandi bor. Yoshligidan taekvondoga qiziqishi kuchli bo'lgan. Shu sababli ham ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullana boshlagan. Qattiq mehnat va tinimsiz mashg'ulotlar uning hayotidagi g'alabalariga pillapoya vazifasini bajargan.

U 2002-2004-yillarda Taekvondo Koreya universitetlar Ligasi direktori, 2003-yili 22-yozgi jahon universitetlari o'yinlariga sportchilarni saralash musobaqasining menejeri, 2004-yili Taekvondo bo'yicha 8-Jahon universitetlari

musobaqasi Texnik qo'mitasi a'zosi (Gretsiya), 2004-2009-yillari Koreyaning Dankuk universiteti sport ustasi bo'lib faoliyat yuritgan. 2009-yilda esa mazkur universitetni fan doktori sifatida tamomlagan. Baek Mun-Jong magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini taekvondo bo'yicha yoqlagan.

Hayotini sportning shu turiga bag'ishlagan sport olimi O'zbekistondagi ish faoliyatini dastavval O'ZD-JTSUdan boshladi. So'ngra 2012-yilgacha taekvondo bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasiga bosh murabbiy bo'ldi. Hozir ham universitetimiz talabalariga Baek Mun-Jongdan saboq olishmoqda. Taekvondo yo'nalishida tahsil olayotgan har bir talaba uning shogirdiga aylanishni va bu sport turining barcha sir-asrorlarini undan o'zlashtirib olishni istaydi. Shogirdlaridan Akmal Ergashov, Natalya Mamatova, Dmitriy Kim 2012-yili Londonda bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida ishtirok etishga muvaffaq bo'lishdi. Yana ko'plab milliy terma jamoa a'zolari ham Baek Mun-Jong qo'lida shug'ullanib, xalqaro musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritgan.

U nafaqat Koreyada, balki O'zbekistonda ham shogirdlari qalbidan chuqur joy olgan. Biz uning yetakchiligida bilimli hamda tajribali mutaxassis va sportchi bo'lishni istaymiz.

Umrinisobonu **MIRJALILOVA**,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
3-bosqich talabasi

O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSİYALAR UNIVERSITETI KAFEDRALARIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI!

“Medialar nazariyasi va amaliyoti” kafedrasida bo'yicha:

Lavozim	Shtat birligi
Fan doktori, professor	1 hajm birligiga 1 nafar
Fan nomzodi, dotsent	1 hajm birligiga 1 nafar
O'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar

“Piar va xalqaro kommunikatsiya” kafedrasida bo'yicha:

Lavozim	Shtat birligi
Fan doktori, professor	1 hajm birligiga 1 nafar
Fan nomzodi, dotsent	2 hajm birligiga 2 nafar
Katta o'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar
O'qituvchi	2 hajm birligiga 2 nafar

“O'zbek tili va adabiyoti” kafedrasida:

Lavozim	Shtat birligi
Fan doktori, professor	1 hajm birligiga 1 nafar
Fan nomzodi, dotsent	2 hajm birligiga 2 nafar
Katta o'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar
O'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar

“Raqamli media va internet” kafedrasida bo'yicha:

Lavozim	Shtat birligi
Fan doktori, professor	1 hajm birligiga 1 nafar
Fan nomzodi, dotsent	2 hajm birligiga 2 nafar
Katta o'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar
O'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar

“Xorijiy tillar” kafedrasida bo'yicha:

Lavozim	Shtat birligi
Kafedra mudiri	1 hajm birligiga
Fan nomzodi, dotsent	2 hajm birligiga 2 nafar
Katta o'qituvchi	1 hajm birligiga 1 nafar

Tanlovda ishtirok etishni xohlaganlar rektor nomiga ariza, shaxsiy varaqa (ma'lumotnoma), diplomlar nusxalari, ilmiy ishlar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjatlar nusxalarini topshiradilar.

Manzil: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Markaz-5, 88-uy.

Tel: (71) 207-09-06, (91)190-93-59.

Eslatma: Mazkur oliy ta'lim muassasasida ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradilar, chetdan tanlovda ishtirok etuvchilar sinov daralarini o'tkazadilar.

Ba'zan aholi uylari atrofi, ko'chalar, maydonlar, istirohat bog'laridagi qurigan o'tlarni va har xil chiqindilar yig'ilib, maxsus ajratilgan joyga olib chiqilishi o'rni yoqib yuborilayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, kuz faslida bunday holatlar yanada ko'payadi.

O't bilan o'ynashmang!

Azimas bo'lib ko'ringan gulxan kimlaridir boshpanasidan, sog'lig'idan hatto jonidan ayirishi mumkinligi xayolimizga ham kelmaydi. Afsuski, o'zbohimchalik bilan qilingan ishlarning oqibati katta talofatlarga olib keluvchi yong'inlarga sabab bo'ladi. Biz bu kabi holatlar bilan deyarli har kuni yuzma-yuz kelamiz.

Chala o'chgan gulxanlardan tarqalayotgan tutun, yoqimsiz hid barchaning ko'nglini xira qilishi bilan birga ba'zi in-

sonlarni turli allergik xastaliklarga ham duchor qilmoqda.

Kundalik hayotimizda uchrab turadigan bu kabi ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lmasligi uchun har bir fuqaro mas'uliyat bilan yondashishi kerak. Aziz yurt-doshlar, o'zingiz va atrofingizdagilar hayotini xavf ostiga qo'ymang!

Jasurbek EGAMNAZAROV,
Mirobod tumani FVB
P va NB mutaxassisi,
oddiy askar

Hurmatli abituriyentlar!

M.V.LOMONOSOV NOMIDAGI MOSKVA DAVLAT UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI BAKALAVRIATNING YANGI YO'NALISHLARIGA 2020-2021-O'QUV YILIGA HUJJATLAR QABUL QILISH BOSHLANGANLIGINI MA'LUM QILADI:

- Filologiya (rus tili va adabiyoti) – 50 o'rin, shu jumladan 20 o'rin davlat granti asosida;
- Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar – 50 o'rin, shu jumladan 20 o'rin davlat granti asosida.

O'qish muddati 4 yil.

Hujjat topshirish uchun arizani faqat onlayn shaklda MDUning elektron axborot tizimi webanketa.msu.ru. orqali yuborishingiz mumkin.

Hujjat topshirish uchun elektron raqamli imzo (ERI) talab qilinmaydi.

Talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati:

- ariza (MDUning elektron axborot tizimi orqali);
- pasport asli va notarial tasdiqlangan rus tiliga tarjimasini (skaner qilingan nusxalarini webanketa.msu.ru elektron axborot tizimiga yuklash lozim);
- ta'lim haqidagi hujjat asli (barcha betlar skaner-

larini yuklash lozim:

1. Hujjat raqami, F.I.O va ta'lim muassasasi haqida ma'lumot ko'rsatilgan betlar. 2. Diplom ilovasi to'liq).

Izoh: diplom yoki guvohnoma tarjimasini KERAK EMAS.

– JPEG yoki PNG formatidagi fayl (dyuymga 300 nuqta sifatida), 3x4 sm hajmdagi 1 dona rasm (qora-oq yoki rangli, bosh kiyimsiz);

Hujjatlarni qabul qilish – 2020-yil 20-sentabrgacha.

Filologiya (rus tili va adabiyoti) yo'nalishi bo'yicha kirish imtihonlari:

– Rus adabiyoti (yozma) – 24-sentabr;

– Rus tili (yozma) – 22 sentabr.

Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar yo'nalishi bo'yicha kirish imtihonlari:

– Jamiyatshunoslik (yozma) – 26-sentabr;

– Rus tili (yozma) – 22-sentabr.

Barcha imtihonlar soat 9:00 boshlanadi.

Imtihonlar onlayn tarzda ZOOM platformasi orqali qabul qilinadi.

To'lov-kontrakt asosida o'qish uchun to'lov miqdori 1 yilga 22 000 000 so'm.

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 22-uy

(Mo'ljal: Fedorovich shifoxonasi).

Ma'lumot uchun telefonlar:

(71) 232-28-11, 232-28-22,

(94) 605-12-25, (93) 812-31-43.

Sayt: <https://msu.uz/enrollee>, e-mail: pk@msu.uz

16 Har bir maktab o'quvchisi biror musiqa asbobini chalishni o'rgansa, o'smirlarning barchasida toza insoniy tuyg'ular kurtak yoza boshlaydi.

Har bir o'quvchi musiqa chalolsa...!

“Maktab bitiruvchisi attestatida “cholg'u asbobini o'rgangan” degan baho bo'ladi”. Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zlari. Davlat rahbari ushbu so'zlarni iyun oyi oxirlarida Namangan viloyati faollari bilan o'tkazilgan yig'ilishda aytib o'tdi va bu borada mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Prezident o'z so'zini shunday izohladi: “Nima uchun bu kerak? Iqtisodiyotni tiklaymiz, lekin shu bilan barobar ravishda madaniyatimizni tiklab bormasak, ertaga ma'naviy ozuqa bo'lmagan elda, xalqda, yoshda yutuq bo'lmaydi”.

Bu juda to'g'ri, chuqur o'ylangan qaror edi. Zero, Navoiy ham “Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanoat tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi” degan edi.

Darvoqe, musiqa inson ruhiyatini ma'naviy oziqlantiruvchi mustahkam quroldir. Ibn Sino insonlarni davolashda musiqadan foydalangani bejiz emas, chunki qalbi, ruhiyati sog'lom inson mustahkam irodaga ega bo'ladi.

O'rta asrlarda bayon etilgan rivoyatlarga ko'ra, g'ijakni Forobiy yaratgan,

Ibn Sino dastlabki ikki torni kvartaga sozlagan, Qulmuhammad Udiy esa g'ijakka 3-torni qo'shgan. Ungacha ikki simli g'ijakda ipakdan eshilgan yoki simli aks sado beruvchi torlar soni 8-11 ta bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalarga tayanadigan bo'lsak, ota-bobolarimiz musiqa ilmini o'rganishga katta ahamiyat qaratishganiga amin bo'lamiz.

Bugun ham har bir maktab o'quvchisi biror musiqa asbobini chalishni o'rgansa, o'smirlarning barchasida toza insoniy tuyg'ular kurtak yoza boshlaydi. Bo'sh vaqtlarini faqat internet o'yinlari,



ijtimoiy tarmoqlarga sarflamay san'atga safarbar etadilar. Bu ularning kelajak sari intilish istaklarining ortishiga ham xizmat qiladi. Mashhur yozuvchi Stendal aytadiki, “Komil musiqa qalbni shunaqa larzaga keltiradiki, bu hissiyotni sevimli mavjudotlardan bahra olayotgan kabi

holatda bo'lgandek his etasiz, ya'ni musiqa, so'zsiz dunyoda bor bo'lgan eng yorqin baxtni ato etadi”.

Dilafroz HAMROQULOVA,
Marhamat tumanidagi
31-maktabning
nemis tili fani o'qituvchisi

Ma'rifat
Xalq ziyolilari gazetasi

“Ma'rifat” gazetasi Respublika ta'lim markazi AXBOROT XATI



“Ma'rifat” gazetasi tahririyati Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar maktablari o'qituvchi, o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarini ilmiy faoliyatga yo'naltirish, yangi o'quv yilini sifatli tashkil etishga ko'maklashish, uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash, pedagoglar o'rtasida tajriba almashishga erishish, ilmiy, metodik faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadida **2020-yil 15-sentabrda “Masofaviy ta'limni tashkil etishda zamonaviy usullar” konferensiyasi** doirasida respublika miqyosida onlayn ilmiy-amaliy anjuman tashkil etadi.



Konferensiyaga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qilinadi:

- I. Ijtimoiy fanlar.
- II. Gumanitar fanlar.
- III. Aniq fanlar.
- IV. Tabiiy fanlar.
- V. Chet tillari.
- VI. Amaliy fanlar.

Konferensiya materiallari elektron kitob shaklida nashr qilinadi. Har bir ishtirokchiga konferensiya to'plami va ushbu konferensiyada ishtirok etganini tasdiqlovchi Diplom onlayn tarzda yuboriladi.

Konferensiyada maqolasi bilan qatnashgan har bir ishtirokchi “Ma'rifat” gazetasining mobil ilovasiga bepul obuna qilinadi!

Tashkiliy qo'mita kelgan materiallarni saralash va tanlash huquqiga ega. Maqolalar 2020-yilning 10-sentabrigacha qabul qilinadi.

Maqolalar info@marifat.uz elektron pochta hamda @Charosxon_Burxon_qizi telegram manzili orqali qabul qilinadi.

Maqolaga qo'yiladigan talablar:

- a) imloviy xatolar bo'lmasligi;
- b) matn grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri, tushunarli hamda ilmiy-ommabop uslubda yozilgan bo'lishi;
- d) mavzu hamda muammo to'g'ri tanlanib yoritilgan hamda ko'tarilgan muammoda yangilik (o'ziga xoslik) bo'lishi;
- e) maqolada ko'tarilgan masalaning ishonchli (mantiqiy bahsga kirishilgan, mantiqiy asos keltirilgan, fikrlarda mantiqiy ketma-ketlik) bo'lishi;
- f) yechimi topilmagan muammo yuzasidan kelgusida bajarilishi zarur bo'lgan tadqiqot haqida fikr bildirilgan bo'lishi lozim.

Maqolani rasmiylashtirish:

1. Maqolaning tili: o'zbek, rus, qoraqalpoq.
2. Hajmi: 3 betdan kam bo'lmagan hajmda.
3. Yozilish tartibi: Microsoft Word dasturi, Times New Roman shrifti, o'lchami 12, interval 1,5.
4. Sahifa o'lchami: o'ng tomondan 3 sm, chap tomondan 1 sm, yuqori va pastdan 2 sm.
5. Maqola sarlavhasi: o'rtada, quyuk, katta harflar bilan.
6. Muallif nomi: maqola sarlavhasidan 1 satr pastda, o'ng tomonda, qiya (muallif familiyasi, ismi, otasining ismi, ta'lim muassasasi nomi (fakulteti, kursi), elektron pochta manzili, telefon raqami).
7. Faqat tahrir hay'atidan o'tgan maqola mualliflariga to'lovni amalga oshirish haqida xabar yuboriladi. Har bir sahifa uchun to'lov miqdori — 10 000 (o'n ming) so'm.

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150, V-4311. Tiraj 8339. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'lmi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



“Ma'rifat” dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy,
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.